

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 18-iyul  
№29 (3143)

## VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

*Manam orzu, manam umid, manam bунyод,  
Zilol, toza havolarga to'la ko'ksim.  
Jonim fido, borim fido to umrbod  
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Manam qадим umidlarning vorisiman,  
Ro'yobiman bobom yig'lab ko'rgan tushin.  
Kunlar keldи tongi porloq, dorilamon,  
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Manim yоруг' kunларимда охор bordir,  
To'rt yонимда yoz, kuz, qish-u bahor bordir.  
Nima qildim, ko'ksimda bir savol bordir  
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Manam ozod shamollarga yelkadoshman,  
Mashrab, Bobur, Navoiya qarindoshman.  
Bu hуrlikda bo'lurmi, ayt, she'rlar yozmay  
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*To'rt yонимда g'ala-g'ovur talotumlar,  
Tuprog'ida tanklar hurar, ko'kda to'plar.  
Birlasholmay joni halak qancha yurtlar  
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

*Tuprog'iga tayoq suqsang, chinor bo'lgay,  
Jannatda ham mushkin bo'yi xumor bo'lgay.  
Yurtga bu so'z tumor bo'lgay, shior bo'lgay  
Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!*

**Muhammadali G'AFFOROV,  
"Vatanparvar",  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

IJTIMOY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)

vatanparvar-bt@umail.uz


[facebook.com/mudofaavazirligi](https://facebook.com/mudofaavazirligi)



[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)

[instagram.com/mudofaavazirligi](https://instagram.com/mudofaavazirligi)

[youtube.com/c/uzarmiya](https://youtube.com/c/uzarmiya)



# VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Dunyodagi har bir xalqning jahonda borligi, keskin raqobat sharoitida rivojlanishga qodirligini ta'minlaydigan, el-yurtni birlashtirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etadigan siyosiy-iijtimoiy zamin va kuch-qudrat manbai davlat mustaqilligidir. Ayniqsa, xalqaro vaziyat murakkablashib borayotgan bugungi kunda bu haqda chuqur his etmasdan turib, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va keng ko'lamli natijaga erishish oson emas.

Prezidentimizning shu yil 10-iyulda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida mamlakatimiz mustaqilligining ulkan ahamiyati inobatga olinib, milliy istiqlolimizning shonli sanasini Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Mustaqillik bayrami Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlash ko'zda tutilgan.

## EZGU G'OYA

Mustaqilligimizning 34 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirlari "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan. Vatan, millat, xalq birlashganda birdamlik yuzaga chiqadi, bu hamnafaslik faqtgina ezzulik, yaxshiliklar sari boshlaydi. Bugun yurtimizning har jahbada birdamligi e'tirofga loyiq. "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun". **Shu so'zlar qulog'im ostida jaranglaganda** Vatan tinchligi yo'lida mardona qadam tashlab ketayotgan yurt himoyachilar ko'z oldimda jonlandi. Bu so'zlar nafaqat harbiy xizmatchilar, balki yurtimizning har bir fuqarosining ko'ksida iftixor tuyg'usini uyg'otadigan, ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan.

Keyingi yillarda O'zbekistonda kechayotgan islohotlar samarasi jamiyatning barcha jabhalarida yaqqol aks etyapti. Ayniqsa, oxirgi sakkiz yilda barcha soha va tarmoqlar, shu jumladan ilm-fan, sport, axborot texnologiyalari, madaniyat, adabiyot va san'at sohalarida kuzatilayotgan ijobjiy o'zgarishlar yurtimizning intellektual va ma'naviy salohiyati yanada oshishiga zamin yaratmoqda.

## YOSHLAR - YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI

Yurtimizda navqiron avlod vakillarining zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallab,

dunyo miqyosida munosib o'rin topib borayotgani hech kimga sir emas. Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning samarasi o'laroq yoshlar o'z ona tili bilan birlgilikda xorijiy tillar, IT texnologiyalari sohasida har tomonlama bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib borayotgani ko'zni quvontiradi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tashabbusi bilan 30-iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" deb e'lon qilingani, **keyingi yillarda yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish,**


**ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilayotganini yaqqol tasdiqlaydi.** Yoshlar iqtidorini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etilgani esa ertamiz umidlarini yanada ilhomlantirmoqda.

## ARMIYA VA XALQ BIR TAN-U BIR JONDIR

So'nggi yillarda mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilish maqsadida harbiy sohada keng ko'lamli islohotlar amalga

oshirilayotgani barchamizga ayon. Harbiy xizmatning obro'-e'tibori oshib, armiya va xalq birligi yangicha mazmunga ega bo'lmoqda. Bu esa yoshlарimiz qalbida vatanparvarlik, armiya bilan faxrlanish tuyg'usi, Vatan himoyasidek sharafli kasbga hurmat-ehtirom hissini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Albatta, istiqlolga erishish qancha qiyin bo'lsa, uni saqlash va himoya qilish ham shunchalik mas'uliyatiidir. Bu yo'lda barchamiz bir yoqadan bosh chiqarmog'imiz lozim. **Vatan uchun jon olib, jon berishga har daqiqa shay bo'lish, yurt tuprog'ini begona ko'zlardan asrab-avaylash farzandlik burchimizdir.** Zero





qahramonlarni uzoqdan izlash shart emas. Mustaqillik yillarda yurtimiz tinchligi yo'lida jonfido qilgan millat fidoyilarini eslashning o'zi kifoya.

*Mustaqillik yillarda qurban bo'lgan o'g'lolar, Qurban bo'lgan degim kelmas, qo'rg'on bo'lgan o'g'lolar. El tinci-yu onomligi, erk-saodat yo'lida, Vatan uchun, millat uchun qalqon bo'lgan o'g'lolar.*

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning mana shu misralarining o'zi qahramon yigitlarning nechog'li Vatanga muhabbat qo'ygani, bir qarich tuprog'ini jonidan afzal ko'rgani, Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun, shirin jonini ayamaganini shundoq ko'z oldimizda jonlantiradi.

Fidoyi va mard o'g'lolarning o'chmas xotirasini abadiylashtirish, ularning jasoratlarini keljak avlodga tanitish maqsadida poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i"da qad rostlagan **196 nafar fidoyi harbiyning nomlari zarhal harflar bilan**

**muhrlangan "Millat fidoyilari" yodgorlik majmuasining barpo etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.**

#### ADABIYOT YASHASA, MILLAT YASHAR

Jadid bobolar orzu qilgan kunlar ostonasida boshimizni baland tutib yuribmiz. Yorug' damlar mudom hamrohimiz bo'lsin. Yurtimizda adabiyot va san'atga berilayotgan e'tibor ham maqtagulik. Birgina O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi misolida ko'radian bo'sak, qanchadan qancha yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlab, iste'dodlarni yuzaga chiqarib kelayotganiga guvoh bo'lamiz. Zomin seminari, "Birinchi kitobim" loyihasi, yoshlarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun uyushtirilgan qancha tanlovlар shular qatoridadir.

Quvonarlisi, o'zbek adabiyotini dunyoga tanitayotgan, jahon adabiyotini tilimizga mohirona o'girayotgan yosh tarjimonlarning

azm-u shijoati ko'ngilni chog' etadi. Davlatlar o'rtasida o'tkazilayotgan xalqaro adabiy uchrashuvlar, boshqa millatlarning adabiyoti, ijodkorlari bilan tanishuvlar ham adabiyotga qaratilgan e'tiborning namunasidir.

**Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ayniqa yoshlarga qaratilayotgan e'tibor – bularning hammasi ko'zni quvontiradi.** Shunday yaxshi kunlarda boshimizni baland tutib, qo'llarimizni duoga ochib, bugungi dorilomon kunlarning shukronasini keltirsak arziydi.

Mamlakatimizda hozirdan bayram shukuhi boshlanib ketgani sir emas, mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yilligi yuqorida qayd etgan yutuqlarimiz, ushalayotgan orzularimiz tantanasi sifatida munosib nishonlanishiga zamin yaratadi.

**Muhammadali G'AFFOROV,**  
**"Vatanparvar"**



**Havo-desant tayyorgarligi**

Osmon qayerdan boshlanib, qayerda tugaydi? Bu bo'shliqning oxiri qayerda? Meni qiynaydigan savollar shunday. Aslida bu gaplar yangilik emas, mendan avval ham qancha odamlarning xayolidan o'tmagan deysiz? "Oyoq ostini ko'rmay qo'yan" degan gap bor xalq ichida. Ma'nosi hammaga ma'lum. Ayni zamonomizda esa osmonga termilmay qo'yanlar ham ko'paygandek tuyuladi. Balki, bu iborani "Osmonini ko'rmay qolganlar" iborasiga almashtiradigan vaqt kelgandir. Ish, oila, bola-chaga tashvishlari bilan bo'lib, samoni kuzatganingizni, undagi sir-sinoatlar haqida o'ylaganingizni eslay olmasangiz kerak.

Masalan, o'zim ham qachon oxirgi marta osmonga termilganim yodimda yo'q. Bolalik orzusi deydimi, yo har insonda har ko'rinishda yuz ko'rsatadimi, yoshligimda osmoni falaklarda uchish orzusi bo'lgan. Bugun men sizlarga aytib berajak insonlar esa orzularimda yashaydi. Ular uchish zavqini kunora his etib turadi, qushlar bilan yonma-yon qanot yozib, yurtning istiqboldidan, tinchligidan so'zlaydilar.

Saharlab Toshkent harbiy okrugi "Markaz" desantchilar bazasida parashut bilan amaliy sakrash mashg'ulotlarini tasvirga olish uchun otlandik. Ketarkanmiz, yo'l taassurotlari haqida biroz to'xtalmasam ko'nglim meni kechirmaydi. **Ufqning ko'zları yoriy boshlagan payt, quyosh zarrin nurlarini samo uzra astalik bilan sochmoqda.** Daraxtlarga ko'rk berib turgan barglar shamolning mayin ohangiga raqs tushayotgandek tebranadi, yonimda mudrab ketayotgan hamrohimga, uyg'on, tabiatning bunday ajoyibotidan bebahra qolib ketish kechirilmas gunoh, degim, keladi-yu, tilim bormaydi. Baribir uyg'otdim:

– Qarasangiz-chi, borliq uyg'onmoqda, samoning ko'zi yordi. Quyoshning bulutlarga qizg'ish rang berishi ajoyib-da, bir ko'ring.

– Qo'ysangiz-chi, do'stim, shu meni uyqudan uyg'otishga arziydimi, kecha yaxshi uxlamanaganman. Undan ko'ra biroz mizg'ib oling, oldimizda butun kun turibdi, – kostyumi bilan boshini yopadi.

Bunday paytda odamning ko'ziga uyqu qayerdan kelsin, deb xo'rsinaman-da, tabiatga yuzimni buraman. Manzil uzoqligi odamning xayoliga ham kelmaydi, ko'nglimdan o'tgani esa yo'lning tugab qolmasligi, umrning tugab qolmasligi. Bisotimizda bajarishimiz kerak bo'lgan qancha ishlar, ko'rishimiz kerak bo'lgan qancha hayratlar bor.

Kun qizishga ulgurmay yetib oldik, olisdan shamolda hilpirab turgan bayrog'imizga ko'zim tushdiyu, **yurtning bayrog'i, samo uzra**

**doim mana shunday hilpirab turishi, xalq osoyishta orom olayotganidan darak ekanı, yurt sarhadlari yomon ko'zlardan xoli ekanini o'ylab, ko'ksimda xotirjamlik va faxr tuydim.**

**SAMOGA KO'Z TIKKANLAR**

Biz bilan yelkama-yelka vertolyot ham yetib keldi, harbiy xizmatchilarning ko'zlaridagi



quvonch, ularning osmoni falaklarga muhabbat bilan termilib turishida ajib tasvir bor edi. Rassom bo'lsam-u, bu lahzani qog'ozga solsam.

**Axir bolaligimiz shu orzular qurshovida o'tgan, "uchuvchi bo'laman, harbiy bo'laman", deya butun boshli bolalar qo'llariga yog'ochdan qurol yasab, yugurib yurmaganmidik.** Qishlog'imiz tepasidan uchgan vertolyot ortidan adirga borib qolganlarimiz ham shundoq ko'z ongimda jonlanib turibdi.

Bugun ham xuddi ana shunday boshimiz uzra "uchar qush" suzib yuribdi. Samo uzra burgutdek harakatlanayotgan vertolyotga termilib qolaman. Lahzani ushlashga urinib, fotoapparatim ko'zusidan bir ko'zimni yumgancha parvoz etayotgan

**SAMO UZRA PARVOZ**



## ETAYOTGAN ALPLAR



jismni suratga muhrlayman. Qaldırıg'ochlardek tizilib turgan harbiy xizmatchilarga sakrash qoidalarini o'rgatayotgan yo'riqchiga ko'zim tushadi-yu, so'zlariga quloq tutaman. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerakligini, ko'k uzra parvoz jarayonida inson o'zini qanday tutishi lozimligini mayda detallargacha tushuntirmoqda. O'g'lonlar esa tezroq osmoni falakni zabit etsam, degan hayajon bilan samoga ko'z tikkancha mag'rur boqmoqda.

### PARASHYUTNI KIM IXTIRO QILGAN?

O'z hayrat va hayajonlarim bilan bo'lib parashyut haqida biror ma'lumot ham yozmabman. Fazoga **5 kilometr** baland chiqib, keyin **3 metrli** to'siqdan pastga sakrab tushgandek yerga xotirjam



qo'nishni tasavvur qiling-a?! Siz shunday qilgan bo'larmidингiz? Albatta, parashyut bilan! Parashyut – havo qarshiligini yaratadigan katta soyabon. Yerga qo'nganda lat yeyishining oldini olish uchun odam parashyutda yetarli darajada sekin tushishi mumkin.

**Ehtimol, parashyut odam bilan uchadigan eng qadimgi uchish moslamasi g'oyasidir.**

Leonardo da Vinci **1514-yilda** daftariiga parashyutning xomaki chizmasini tushirgan. Fausto Veranzio **1595-yilda** ishga layoqtli parashyut ta'rifи haqida yozma ishlarini nashr etgan. Parashyutni ilk bor amalda qo'llagan odam fransuz Jan-Per Fransua Blanshar hisoblanadi. **1785-yilda** u parashyut bog'langan savatdagi itni havo sharidan tashladi. **1793-yili** Blanshar o'zi ham parashyutda

havo sharidan sakrab, qo'nish paytida oyog'ini sindirib olganini ta'kidlagan.

Boshqa bir fransuz Andre-Jak Garneri parashyutdan muntazam foydalanishni boshlagan ilk inson sifatida tarixda qolgan. U **1797-yil 22-oktabr** kuni Parijda birinchi marta parashyut bilan **600 metrdan** yuqori balandlikdan muvaffaqiyatlari sakrashni amalga oshiradi.

Garnerining parashyuti soyabon shaklida bo'lib, oq brezentdan yasalgan va diametri taxminan **7 metr** edi. Gumbazosti markazida kesimi taxminan **25 santimetrlı** disk shaklidagi yog'och bo'lagi va uning o'rtasida havo o'tadigan teshik bo'lgan. Disk brezentga ko'plab qisqa tasmalar bilan biriktirilgan.

Birinchi marta samolyotdan parashyutda muvaffaqiyatlari sakrash **1912-yili** AQShning Missouri shtatining Sent-Luis shahrida kapitan Berri tomonidan amalga oshirilgan.

### QO'RQUV BILMAS O'G'LONLAR

Vertolyot taxminan **2 000 metr** balandlikka ko'tarildi. Chiqish oldidagi qilgan qahramonliklarim yuqoriga ko'tarilgandan so'ng lahzada yakun topdi. Uchoqning salonidagi tutqichga yopishgancha harbiylarning sakrashlarini kuzatishdan nariga o'tolmadim. Yigitlarning shiddatli harakatlardan ko'nglimni bir muddat xavotir qopladi. Parashyut ochilmay qolsachi? Shamol harakatni o'zgartirib, bir yoqlarga uchirib yuborsa-chi? Shunday savollar nazari bilan harbiylarga boqaman. Keyin yerga qarab uchib borayotgan azamatlarning yuraklarida mening ko'nglimdan o'tgan his tuyg'ulardan asar ham yo'qilgini his qilaman. Ular chinakam qahramonlar, parvoz zavqini tuygancha yer tomon changal solib borar edi. Hammasi ko'ngildagidek yakun topdi. Osmonga bir qadar yaqinlashganidan quvondim, ularga havas bilan qaradim. Samoni zabit etmoqchi edim-u, menda yetarli tajriba, ko'nikmalar yo'qligi bu shaxtimdan qaytardi. Nima bo'lganda ham ajoyib taassurotlardan ko'nglim xushnud bo'ldi. Qaytishda quyosh botishini kuzatib, kun o'rnini tunga bo'shatib berayotgan lahzalarda uy tomon odimladik.

**Muhammadali G'AFFOROV,**  
**"Vatanparvar"**

Mardi maydonlar

# JANGOVAR SHAYLIK SARI



**Sharqiy harbiy okrug So'x garnizonidagi harbiy qism. Bu yerda yurt himoyachilari o'quv yili rejasiga asosan olib borilayotgan mashg'ulotlarda jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, harbiy mahorat va kasbiy salohiyatni mustahkamlash bilan band.**

Mashg'ulotlar davomida taktik harakatlarga alohida e'tibor qaratilib, harbiy xizmatchilar jamoaviy harakat qilish, tezkor qaror qabul qilish va vaziyatdan kelib chiqqan holda pozitsiyalarni o'zgartirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini oshirdi. Shuningdek, mudofaa va hujumga oid asosiy harakatlar hamda turli mashqlar bajarildi. Zero har bir harakatda mas'uliyat, har bir qadamda elga, yurtga sadoqat tuyg'usi yotibdi.

Otish tayyorgarligi mashg'ulotlarida esa harbiy

xizmatchilar har xil masofalarda aniq nishonga o'q uzish, jangovar holatda qurolni to'g'ri ishlatalish, tezkor pozitsiya egallash, xavfsizlik qoidalariiga qat'iy rioya etgan holda yakkama-yakka va guruh holatida o't ochish malakalarini mustahkamlamoqda.

E'tiborli jihat shundaki, harbiylar iqlim va relyef sharoitlaridan qat'i nazar, o'tkir diqqat, chapdast harakat va kerakli mahoratini namoyon eta oladi. Bu esa jangovar shaylikning tobora yuksalib borayotganini ko'rsatadi.



Taktik tibbiy tayyorgarlik doirasida harbiy xizmatchilar yaradorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ularni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish, qon ketishini to'xtatish, jarchatni bog'lash, nafas yo'llarini ochish kabi muhim ko'nikmalarni amaliyotda mustahkamladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jangovar shaylik, intizom va fidoyilik – bu faqat xizmat shiori emas, balki harbiy burchning ajralmas qismidir. Mudom Vatan himoyasini o'ziga sharaf deb

bilgan bu jasur yigitlar dala-o'quv maydonidagi mashg'ulotlar orqali o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib, xizmatga munosib tayyorgarlik ko'rmoqda. Bu mashg'ulotlar faqat taktik ko'nikma emas, balki Vatanga sadoqat, elga ishonch va tinchlikni asrashdek muqaddas burchga bo'lgan ma'naviy tayyorgarlikning ham yorqin ifodasi sanaladi.

**Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati**



## Armiyamiz tayanchi va suyanchi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng 2000-yillardan boshlab xorijiy tajribalarga asoslanib, professional serjantlar korpusini shakllantirish, ularni tayyorlashning yangi tizimi joriy etilgan edi. Biroq qo'shinlarni kadrlar bilan sifatli butlash, bo'linmalarning jangovar tayyorgarligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramasdan, qator tizimli muammolar serjantlar institutini to'laqonli shakllantirishga imkon bermayotgan edi. Shuningdek, lider serjantlarni tayyorlashga mo'ljalangan alohida kurslar mavjud emas edi.

## QO'SHINLARDA SERJANTLAR KORPUSI ROLINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

(Bosh serjantlar tizimi misolida)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh. Mirziyoyevning milliy armiyaning tayanchi bo'lgan serjantlar korpusini rivojlantirish bo'yicha tashabbus va ko'satsmalari asosida 2019-yildan boshlab serjantlarning mavqeyini oshirish, ularning xizmat pog'onalarida o'sish tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishlarida tizimli ishlarni amalga oshirila boshlandi.

Jumladan, **2020-yilda ilk bor III, II va I darajali** serjant harbiy unvonlari joriy etilib, serjantlar harbiy unvonlari **uchtadan beshtaga** ko'paytirildi.

Ma'lumki, avvallari "**katta serjant**" unvonini harbiy xizmatchilar **27-28 yoshgacha** olishga ulgurib, shu bilan **zaxiraga chiqqunga qadar**, ya'ni **17-18 yil davomida** ularning xizmatda va unvonda **o'sishi hamda malaka oshirishlari to'xtab qolar edi**. **Uchta darajali serjant** yangi unvonlari kiritilishi bilan harbiy

**serjant** va "**serjant-mayor**" harbiy unvonlari kiritilib, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida serjantlarning harbiy unvonlari soni 9 taga yetkazildi.

Bu bilan serjantlar tarkibini lavozim pog'onalarida o'sishning **vertikal tizimi** to'liq yaratilib, harbiy xizmatchilarining serjantlik lavozimlarida xizmat qilishga bo'lgan motivatsiyasi va g'ururi, ularning xalqaro darajadagi nufuzining oshishiga, umuman olganda esa bo'linmalarning jangovar tayyorgarligi darajasining ko'tarilishiga yana bir asos yaratildi.

Qurolli Kuchlar serjantlar korpusi va bosh serjantlar faoliyatiga oid masalalarni tadqiq qilish davomida xorijiy tajriba, xususan bir qator rivojlangan davlatlarning – AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya Qurolli Kuchlari tajribasi o'rqnildi.

Bugungi kunda qabul qilingan farmon asosida serjantlar korpusini rivojlantirish, **tizimga yangi lavozim va harbiy unvonlarni**



xizmatchilarda **35-36 yoshgacha** harbiy unvon olish imkoniyati paydo bo'ldi va **har bir unvonning berilishi malaka oshirish kurslari bilan bog'landi**.

Mudofaa vazirligining ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib ishlab chiqilgan takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 27-fevraldag'i** tegishli farmoni imzolanib, professional serjantlar korpusi faoliyatini takomillashtirishning yangi bosqichi boshlandi. Jumladan, qo'shnarning alohida batalyon va brigadalarida "**bosh serjant**", qo'mondonliklar boshqaruv apparatlari va vazirlik markaziy apparatida esa "**bosh serjant**" va "**bosh serjant yordamchisi**" lavozimlari joriy qilindi. Ushbu lavozimlarni egallagan harbiy xizmatchilar uchun serjantlar harbiy unvonlariga qo'shimcha ravishda "**birinchi serjant**", "**shtab-serjant**", "**master-**

**joriy qilish** orqali quyidagi natijalarga erishildi:

**serjantlar instituti** to'laqonli tizim sifatida **shakllantirildi** va yetakchi xorijiy armiyalar **standartlari** bilan **tenglashtirildi**;

serjantlar tarkibining **lavozim pog'onalarida istiqbolli o'sishiga** va tajribali mutaxassislarni harbiy xizmatda saqlab qolishga zamin yaratildi;

professional serjantlar korpusini tayyorlash yangi bosqichga olib chiqildi.

Qabul qilingan farmon talablari asosida joriy qilingan "**bosh serjant**" va "**bosh serjant yordamchisi**" **lavozimlariga nomzodlarni saralash, ularni maqsadli ravishda tayyorlash va lavozimga tayinlash ishlari qo'shinlar bilan hamkorlikda** amalgalashadi.

Ilg'or xorijiy tajribani o'zlashtirish maqsadida AQSh va Germaniya Qurolli Kuchlari yetakchi mutaxassislari, shu jumladan

qo'mondonlik serjant-mayorlari bilan treninglar o'tkazildi.

**Bosh serjant** – komandirlarning (*boshliqlarning*) oddiy askar va serjantlar masalalari bo'yicha yordamchisi (*maslahatchisi*), kundalik faoliyatni tashkillashtirishda ularning vakili hamda xizmat faoliyati bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarining to'g'ridan to'g'ri boshlig'i hisoblangan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi.

Rivojlangan davlatlarda ofitserlar operatsiyalarni, taktik harakatlarni rejalashtirish, o't ochishni boshqarish, bo'linmalar jangovar tayyorgarligini oshirish bilan shug'ullanadi. Bosh serjant



ofitserlar tomonidan ishlab chiqilgan rejalarining ijrochilari hisoblanadi, askarlarning individual tayyorgarligi, intizomi, tarbiyasi, axloqiy-ruhiy holatini oshirish, ijtimoiy muammolarini hal qilish masalalari bilan shug'ullanadi.

Mudofaa vazirligida "bosh serjant" lavozimlari va ularning xizmat faoliyatining joriy qilinishi **quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi**:

Mudofaa vazirligi qo'shnilarida professional serjantlar korpusi faoliyatini yanada takomillashtirish va harbiy xizmatchilarining jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish;

shaxsiy tarkibining mutaxassisliklar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini tizimli ravishda oshirib borishni tashkillashtirish orqali doimiy ravishda qo'shnarning jangovar shayligini yuqori darajada ushlab turish;

harbiy jamoalarda yuqori axloqiy-jangovar muhitni yaratish, harbiy xizmatchilarining jangovar tayyorgarlik dasturini samarali o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

serjantlar lavozimlari bilan xizmat o'tashning maqomi va nufuzini oshirish hamda ularning qo'shnardagi ahamiyati va tarbiyaviy rolini kuchaytirish;

kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarining kasbiga bo'lgan

muhabbatini oshirish va ularning lavozimlarda uzuksiz o'sishlarida intilish hissini shakllantirish;

harbiy xizmatchilarini egallab turgan mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy bilim va mahoratlarini oshirish hamda qo'shnarda yuqori ma'naviyatli, harbiy-vatanparvarlik tuyg'ulari va shaxsiy mas'uliyat hissi yuksak bo'lgan harbiy xizmatchilarini shakllantirish.

Bugungi kunda bosh serjantlar oddiy askar va serjantlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar va muddatli harbiy xizmatchilarining jangovar tayyorgarlik hamda tarbiyaviy yo'nalishlarda individual tayyorgarligi va kasbiy bilimini oshirish bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqmoqda. Bo'ysunuvchi bo'linmani boshqarish hamda xizmat sharoitlarini yaxshilash, ularning harbiy-kasbiy malakasini oshirish va o'qishga yuborish bo'yicha komandirlarga takliflar kiritmoqda.

Yosh harbiy xizmatchilarining harbiy xizmatga moslashishi, kasbiy shakllanishi va xizmat vazifalarini mustaqil bajarish qobiliyatini rivojlanishda ularga ustozlik qilib kelmoqda.

Serjantlar kengashi faoliyatiga rahbarlik qilib, kengash majlislarida oddiy askar va

serjantlar tarkibidagi kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarining kasbiy ko'nikmalarini oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash, jamoaviy jipslikni ta'minlash, yuqori lavozimga tayinlash, xizmat faoliyati natijalari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib

rag'batlantirish, ta'minot hamda boshqa masalalarni muhokama qilib, tegishli takliflar ishlab chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida amalgalashadi. Oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini harbiy xizmatchilar orasida keng targ'ib qilish bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulotlar hamda mahorat darslarini o'tkazmoqda.

Xulosa o'rniда aytish mumkinki, bugungi kunda serjantlar korpusini takomillashtirish bo'yicha amalgalashadi. Oshirilayotgan ishlar qo'shnilar jangovar qibiliyatini bir necha marotaba oshirishga, yuqori tajribali, lider serjantlar zaxirasini yaratishga, shu orqali serjantlar roli hamda nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Kapitan Lazizbek TOG'AYEV,**  
**Mudofaa vazirligi**  
**Kadrlar bosh boshqarmasi**  
**bo'lim boshlig'i**

## MILLATNING KUCHI, QUVVATI – TASHABBUSLARI

**“**Bir necha kun avval mamlakatimizda Yoshlar kuni keng nishonlandi. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev yangi marralar sari intilgan, g'ayrat va shijoatli yoshlarga samimiyl tabrik yo'lladi. Unda iste'dodli, bilimli va matonatli yoshlar, yigit-qizlar bebahoh boyligimiz, oltin fondimiz ekani alohida qayd etildi.

Darhaqiqat, har bir millatning kelajagi uning yoshlari bilan chambarchas bog'liq. Yoshlar – bu nafaqat millatning ertangi kuni, balki uning bugungi kundagi harakatlantiruvchi kuchi, yangi g'oyalalar manbai, el-ulus va davlat taqdirini belgilaydigan, jamiyatning eng faol va tashabbuskor qatlamidir. Shu ma'noda yoshlarni "millatning kuchi, quvvati" deb atashimiz mumkin.

### MEHR, ISHONCH VA TASHABBUSLAR

Prezidentimiz Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvda yoshlarga mehri va ishonchini bildirar ekan, ularning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ehtiyojmand oila farzandlarining dunyoning eng nufuzli oliyogholarida o'qishi... Banklarning "TOP – 300" talik oliyogha kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imtiyozli kredit berishi... Startaplarni qo'llab-quvvatlash, ularni moliyalashtirishga ajratilgan mablag' bu yil 1 milliard dollarga yetkazilishi... Startapni prototipga aylantirish va sinovdan o'tkazish uchun Innovatsion rivojlanish agentligi va IT-park tadqiqot va taraqqiyot markazini ochish... Tarmoq rahbarlari har yili o'z tizimidagi 100 nafar yoshni seleksiya qilib, xorijiy stajirovkaga yuborishni yo'lga qo'yishi... Bandlik vazirligi, Savdo-sanoat palatasi Milliy bank bilan birga yil yakunigacha oliyoh, texnikum, kasbiy ta'lim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bog'laydigan platformani ishga tushirishi... **Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida "Kelajak liderlari" dasturi bo'yicha har yili 100 nafar salohiyatli yosh o'qitilishi...** Bularning barchasi yoshlarga bildirilgan katta ishonch, ularning ta'limiga investitsiya, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, malaka oshirish va ish bilan ta'minlash demakdir. Bu mamlakat kelajagi uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan davlat siyosatining muhim qismidir. Bu yo'lda amalga oshirilayotgan ishlar natijasi o'laroq O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi. Yoshlar taraqqiyot indeksida mamlakatimiz bu boroda eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlat deb topildi.

### MILLAT FIDOVILARI

Davlatimiz rahbari uchrashuvda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni yanada

kuchaytirish, turli zararli ta'sirlardan asrash masalasi ham dolzarb ekanini alohida qayd etib, poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i"da ochilgan "Millat fidoyilari" monumenti bu yo'ldagi muhim ishlardan biri bo'lganini e'tirof etdi. Ular Vatan va millat taqdirini o'zining shirin jonidan aziz ko'rgan insonlardir. O'zbek xalqi o'z kechmishida minglab fidoyilarni voyaga yetkazdi. Ulug' yurt sharafini himoya qila oladigan qahramonlarni berdi. Ularning chuqur ilmi va buyuk iste'dodi jasorati va qahramonliklari tufayli insoniyat tarixida Sharq Renessansi degan ibora yuzaga chiqди.

Agar kimdir o'zbek yoshlarining kuchi qayerda, deb so'rasha, hech ikkilanmay: "Ularning Vatanimizni jondan ortiq sevishlarida", deb javob bergen bo'lardim. Chindan ham, Vatanga sadoqatli inson bilan har qanday ishni uddalasa bo'ladi.

**MA'LUMOT UCHUN AYTISHIM KERAKKI, o'zbek snayperlari, ya'ni Mudofaa vazirligi merganlari dunyoning eng kuchlilari safida turadi. Buni xalqaro musobaqalardagi natijalar ham aytib turibdi. 2024-yilning 20-31-may kunlari 11 ta davlatning 36 ta mergan jamoasi**

qatnashgan xalqaro musobaqaning ochilish marosimida mezbon davlat qo'mondoni o'tgan yilgi natijalarni esga olib, ishtirokchilarga: "O'zbekiston – eng kuchli jamoa", deb tanishtirdi.

Murakkab shartlardan iborat bellashuvda merganlarimiz 2 697 ball bilan 1-o'rinni egalladi. 36 ta mergan juftlari orasida III darajali serjantlar Husniddin Mirzamatov va Olim Toshqorayev 5 marotaba rekord natija ko'rsatdi. **O'zbekiston harbiylarining bu yutug'ini, ayniqsa rekord natijalarni Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'an ham katta anjumanda tilga olib, qardoshlar bilan g'ururlanishini e'tirof etdi.** Bu natija joriy yilda ham takrorlandi.

Mana, o'zbek yoshlarining kuchi! Yodingizda bo'lsa, dzyudochimiz Diyora Keldiyorova 2024-yilda yaponiyalik mashhur kurashchi Uta Abeni shov-shuvli mag'lubiyatga uchratib, Olimpiada championi bo'ldi. Bir o'zbek qizining 5 yildan beri mag'lubiyat nimaligini bilmay kelayotgan championni "ippon" (mutlaq g'alaba) bilan yengishi yil voqeasi bo'lgan edi.

Yaqinda Vengriyada yakuniga yetgan jahon championatida Uta Abe g'alaba qozondi va birinchi bergen intervyusida Diyora Keldiyorova ishtirot etmaganidan xafa ekanini yashirmadi. Demak, o'zbekning kuchini, quvvatini hali-beri unutishmaydi.

Mana, o'zbek yoshlarining kuchi! Shu yilning fevral oyida O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasiga qisqa muddatli amaliyot o'tash uchun kelgan Fransiya Qurolli Kuchlari kichik leytenant Fransua-Andre chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimi bilan yaqindan tanishish maqsadida Yunusobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabida bo'lgandi. U otryad a'zolarining

harbiy sport mashg'ulotlarini kuzatib, istalgan o'quvchini o'zi bilan bellashishga taklif etgandi. Maktabning 11-sinf o'quvchisi, "Vatan tayanchi" otryadi a'zosи Ulug'bek Otobekov fransuz ofitserining taklifini qabul qilib, u bilan avtomatni sochish-yig'ish va armrestling bo'yicha o'zarо kuch sinashdi. **Qizig'i, maktab o'quvchisi Fransiya Qurolli Kuchlari ofitserini har ikki bellashuvda ham mag'lub etdi.**

### VATAN TAYANCHI – JADIDLARNING ILHOMBAXSH G'YOYALARI

Shu o'rinda XX asr boshlaridagi millat fidoyilari – jadidlarning faoliyati haqidagi muhim bir yo'nalish haqidagi ma'lumotni keltirib o'tsam.

Yaqinda qo'limga taniqli adib va jurnalist Xolida Ahrorovaning "Izlarini izlayman" nomli kitobi tushib qoldi. Bu uning otasi jadid namoyandalardan biri Said Ahroriyni xotirlab yozilgan asar. Asarda O'qchi mahallasidagi "Vatan" maktabida "Izchi" nomli guruh tashkil qilingani haqida ma'lumot beriladi. Demak, bu yoshlarga umid bilan qarab, ularning kelajagiga ishonib, "Izchi", ya'ni izdan boruvchi deb atashgan, deydi Xolida Ahrorova.

#### SHU MA'LUMOT SABAB

Izlanishga kirishdim, adabiyotlarni varaqladim. Ularga ko'ra, 1918-yilda "Milliy ittihod" tashkilotining raisi Munavvarqori milliy kadrlarni tayyorlash, milliy davlatni qurish va boshqarish uchun maktablarda harbiy ta'lim beradigan guruhlar tuzish tashabbusini ilgari suradi. Shu yili Said Ahroriy rahbarligida "Izchi", Haydar Shavqiy rahbarligida "Temur", Tangriqul Maqsudiy rahbarligida "Turon kuchi" va "Lochin" guruhlari tashkil etiladi. Ularning maqsadi yoshlarga milliy bayroq ostida ilm berish, mutaxassis kadrlar tayyorlash, harbiy o'quvni yo'lga qo'yish va Turkiston xalqining milliy istiqlol kurashchilarini tarbiyalashdan iborat edi.

Ma'lum muddat Toshkentda yashab yoshlarga dunyoviy va harbiy ta'limdan saboq bergan turk ofitseri Chaqiro'z Rojiyning xotiralari juda qiziq.



"1919-yilning oktabr oyi oxirlari. Oktabr inqilobining ikki yilligi nishonlanayotgan edi. Chor hukumati davrida Turkiston general-gubernatori Kaufmanning Toshkent markazi (*hozirgi Amir Temur xiyoboni*) da o'rnatilgan haykali oldida tantanali namoyish bo'lib o'tishi kerak edi. Toshkentda hokimiyatni qo'liga olgan qizil komissarlar haykal oldida turar, maktab o'quvchilar esa ularning oldidan qator-qator bo'lib o'tib borar edi. Maktab o'quvchilar ham ushbu namoyishda ishtirot etdi. Barcha o'quvchilarning kiyimi bir xil – jigarrang edi. Faqat yoqa va do'ppilari maktabiga qarab o'zgarardi. "Temur" guruhi yashil, "Izchi" qizil, "Taraqqiy" moviy, "Turon kuchi" guruhi a'zolari esa to'q qizil do'ppilarda edi. Barcha o'quvchilar ozoda va sarishta kiyengandi. Rus maktablari o'quvchilar esa rang-barang liboslarda namoyishdan o'tdi. Buni ko'rgan Turkiston komissarlaridan biri asabiylashib, o'qituvchilarni boloxonador qilib so'kdi". Mana shu manzaraning o'ziyoq jadidlar tashkil etgan maktablar va ular tarkibidagi guruuhlar millatimiz uchun chor Rossiysi ochgan rus-tuzem maktablaridan avlo bo'lganini bildiradi.

#### ORADAN YUZ YILDAN ORTIQROQ VAQT O'TDI.

O'zbekistonda "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati tashkil etildi. Mamlakatimiz o'quvchi-yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan "Vatan tayanchi" harakati sobiq tuzum davridan andaza olib tashkil etilmagani, aksincha bu harakatning ilk poydevori jadidlar tomonidan qo'yilganini yuqoridagi tarixiy fakt isbot etadi.

Jadidlarning ilhombaxsh g'oyalari davomchilar bo'lgan "Vatan tayanchi" harakati a'zolari yaqinda Qozog'istonda o'tkazilgan "Aybin" xalqaro harbiy-vatanparvarlik musobaqalarida faol ishtirot etib, g'oliblik shohsupasidan joy egalladi.

#### QUROLINGNI ILMDAN YASA

Bugun Yangi O'zbekiston yoshlari qutlug' bir safda, ulug' maqsad yo'lida birlashib, Vatanga muhabbat va sadoqat bilan ijodiy g'oya va intilishlarini, orzularini ro'yogba chiqarmoqda. **Ularning qatorida harbiylar – Vatan himoyachilar alohida o'rinn tutadi. Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni ta'biri bilan aytganda, qo'shinlar safini to'ldirayotgan yoshlar armiyamizning eng kuchli, eng ishonchli, dunyoga yangicha ruh va nazar bilan qaraydigan eng vatanparvar bo'g'inidir.**

Yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylangan milliy armiyamiz shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi dunyoda, mintaqalar va davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi bo'lib qolmoqda. Bildirilayotgan ulkan ishonch, e'tibor va g'amxo'rlikni his qilgan Vatan himoyachilar "Yangi O'zbekiston, yangi marralar sari!"

shiori ostida yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini ishonchli himoya qilmoqda.

**“QUROLINGNI ILMDAN YASA!”** Musulmon dunyosining ulug' allomasi, buyuk ajdodimiz imom Moturidiyning ushu so'zları bugungi yoshlarimizning dasturilamaliga aylangan. Bu hikmat asrlar o'tsa-da, yanada sayqallanib, hayotda in'ikosini topib bormoqda.

Abu Rayhon Beruniy, al-Farg'oniy izdoshlarini voyaga yetkazish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlar harbiy fan yo'nalişlarda ham rivoj topib bormoqda. Joriy yil Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Kelajak muhandislari" xalqaro festivali tashkil etildi. Festival doirasida muhandislik sohasidagi ishlanmalar ko'rgazmasi, robototexnika musobaqlari, aviatsiya va "Drone racing" musobaqlari, "SpaceStart: talabalar raketasi missiyasi" kabi 15 dan ortiq tanlov va musobaqa tashkil etildi. **Ushbu tadbirlerda Mudofaa vazirligi olyi harbiy ta'lim muassasalarining yosh harbiy ixtirochilarini faol ishtirot etib, faxrli 1-o'rinni egalladi.**

Shuningdek, Mudofaa vazirligida innovatorlik bilan shug'ullanayotgan harbiy xizmatchilarga sharoitlar yaratish, harbiy-ilmiy g'oyalarni rag'batlantirish orqali respublikamizning mudofaa salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan loyihamlar ishlab chiqish va ularning ko'rgazmalarini tashkil etish maqsadida Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida Mudofaa vazirligi "TechnoWays - 2025" harbiy rivojlanish marafon festivali ikki bosqichda o'tkazilib, 100 dan ziyod loyiha ro'yxatdan o'tdi. Tanlov komissiyasi tomonidan eng sara deb topilgan 15 ta loyiha 150 million so'mgacha bo'lgan pul mablag'lari bilan rag'batlantirildi.

#### ISTIQBOL ASKARI RUHIY BARDOSH, AQL VA MA'NAVİYATGA TAYANADI

Bugungi axborot makonida keskin kurashlar kechayotgan bir paytda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi, yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash,



jamiyatda harbiy-vatanparvarlik muhitini qaror toptirish eng dolzarb vazifalaridan birdir.

Dunyodagi zamonaviy qurolli mojarolar tahlil qilinganda, texnik ustunlikdan tashqari "jangovar ruh" kurash taqdirini belgilab qo'yayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu sababli mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida jangovar tayyorgarlik bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy barqarorlikni ta'minlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

#### O'TGAN QISQA DAVRDA

qo'shnarda ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. "Chirchiq" polygonida "Askarlarni ruhiy chiniqtirish yo'lagi", "Nukus" va "Farg'ona" polygonlarida "Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik shaharchasi"ning tashkil etilishi bunga yaqqol misol. Ayni paytda qo'shnlar tarkibida 300 ga yaqin yo'riqchi-psixolog faoliyat olib borib, harbiylar jangovar ruhini oshirish va stress holatlari barqaror turish bo'yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqin istiqbolda "Kuchli ma'naviyatlari harbiy xizmatchi" modeli hamda "G'oyaviy jangchi" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishga kirishilmoqda.

Kelgusida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan hamkorlikda zamonaviy psixologik laboratoriya tashkil etilib, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi. Bu faqatgina ma'naviy tarbiya emas, balki strategik muhim vazifadir.

Bugungi harbiy xizmatchi nafaqat quroqla, balki ruhan bardosh, aql va ma'naviyatga tayangan jangchidir. Axborot urushlari, mafkuraviy ta'sirlar va turli tahdidlarga qarshi kurashda ma'naviy qal'amiz mustahkam bo'lishi uchun yurtimizda zarur barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Vatanni sevish faqat qurok ko'tarish emas, balki uni g'oya bilan himoya qilishdir!

#### ULUG' IBRAT NAMUNASI

Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chucherqoq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi.

Bugungi ozod kunlar orzusi bilan qurban bo'lgan adibimiz Abdulla Qodiriy shunday yozgan edi: "**Mamlakat idorasi askarsiz mumkin emas. Biz mustaqil, qulliqdan qutulib yashashni**

xohlar ekanmiz, yaqin istiqbolimizdag'i baxtli kunlar uchun askar bo'lishimiz, Vatan himoyasiga tayyorlanishimiz lozim. Lozingina emas, shartdir".

1920-yili Turkiston yoshlariga qarata: "Yoshlar! Ey yoshi yigirmadan oshgan birodarlar, bu fursatlarni g'animat bilib, ilm yo'liga yuguring. Vataningiz dardiga davo bo'ladigan er va olim yigitlar bo'lmoqqa intiling!" deb yozgandi Hoji Muin. Bu so'zlar bugun ham qimmatini yo'qotmagan.

Har ikki allomaning fikrlarini jamlab, mulohaza qiladigan bo'lsak, millatning o'ziga xos yuzi, qadri ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Bu yuz shunchaki tashqi ko'rinish emas, balki yurtimizda yashaydigan har bir yoshning orzusi, ishtiyogi, kuch-qudrati, bilimi va harakatlari bilan bog'liq bir nurli xilqatdir, desak, yanglishmaymiz. Shu ma'noda yoshlar orqali dunyo bizga qaraydi, biz haqimizda fikr yuritadi va eng muhimi, yoshlarimiz orqali millatimiz o'zini yangidan yaratadi.

Shuning uchun yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga imkoniyat yaratish, har birini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq etib tarbiyalash – bugungi kunning eng muhimi vazifasi.

O'zbekistonning barcha sohalarida yoshlarning roli kundan kunga ortib bormoqda. Milliy g'oya va tarixiy merosdan kuch olgan yoshlar, jadidlar va fidoyilar ruhi bilan yongan avlod sifatida mamlakatimiz kelajagini barpo etishda faol ishtirot etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashganda, ular bilan muloqot qilganda chuqur bir qoniqish hissini tuyib, katta ishonch bildirdi. Yoshlarnig qobiliyat va iqtidorlarini yuzaga chiqarish uchun muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Bu holat O'zbekistonning taraqqiyot yo'lida yoshlar qanchalik muhim kuch ekanini yana bir bor isbotladi.

Davlatimiz rahbari buni tushunish va har bir yoshga ishonch bildirish borasida bizga ulug' bir ibrat namunasini ko'satdi.

Zero millatning kuchi, quvvati yoshlardir.

**Olimjon O'SAROV, mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi**



# TURKISTON JADIDLIK HARAKATIDA VATANPARVARLIK G'oyalar

XIX asning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidlik harakati nafaqat ma'rifiy taraqqiyotga zamin yaratdi, balki xalqni milliy uyg'onish sari yetaklagan kuchli mafkuraviy oqimga aylandi. Ushbu harakat vakillari – jadid ziyyolilari ta'lim sohasida ilgari surgan innovatsion yondashuvlari orqali o'z davrining ijtimoiy-madaniy hayotini tubdan yangilashga intildilar. Ayniqsa, ular tomonidan ilgari surilgan zamonaviy ta'lim konsepsiyasi, jamiyatda milliy tafakkurni shakllantirish, istiqlol g'oyalarini uyg'otish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Jadidlar o'z faoliyatlarida an'anaviy diniy maktablarning eskicha uslubidan voz kechib, yangicha – dunyoviy va milliy ruhdagi ta'lim tizimini joriy etishga intildilar. Bu tizim nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, zamonaviy fikrlash va eng muhimi, Vatanga sadoqat ruhini tarbiyalashga yo'naltirilgan edi. Ularning sa'y-harakatlari Turkiston jamiyatining tafakkuri yangilanishiga, o'zlikni anglashi va ijtimoiy uyg'onishiga kuchli turtki berdi.

Jadidlar faoliyati o'z davri uchun katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, ularning ilgari surgan g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Jumladan, milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, madaniy merosni saqlash va yosh avlodni mustaqillik g'oyalari asosida tarbiyalash borasidagi qadriyatlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashib, mustaqil O'zbekiston ta'lim va tarbiya siyosatida o'z aksini topmoqda.

**SHUNI ALOHIDA TA'KID-LASH JOIZKИ**, jadidlik harakati ta'limdagi yangilik bilan cheklanmagan – u butun jamiyatni yangicha ruhda o'zgartirishga, uni ilm-fan, ma'rifat va milliy g'oya asosida taraqqiyot sari yetaklashga intilgan edi. Harakatning tub mohiyati esa – Vatan taqdirliga befarq bo'lмаган, millatning istiqbolini uchun fidokorlikka tayyor, erkin fikrlovchi va zamonaviy dunyoqarashga ega avlodni voyaga yetkazishdan iborat edi.

Turkistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidlik harakati nafaqat ta'lim tizimida, balki ijtimoiy hayotda ham tub islohotlar va o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Jadid ziyyolilari ta'limni yangilash orqali yosh avlodni ilm-fan, madaniyat va siyosat sohalarida yangicha qarashlarga yo'naltirishga harakat qildilar. Bu harakat nafaqat zamonaviy bilimlar bilan qurollanish, balki yoshlarni vatanparvarlik, erkin tafakkur va milliy ong ruhida tarbiyalashni o'z oldiga muhim vazifa qilib qo'yan edi.

Jadidlik harakati yuzaga kelgan davr – Rossiya imperiyasi hukmronligi ostida Turkiston jamiyatining siyosiy va madaniy tazyiqqa duch kelgan, diniy ta'lim tizimi va ijtimoiy tartiblar izdan chiqqan murakkab tarixiy bosqichga to'g'ri keladi. Shu sababli **jadidlar faoliyati jamiyatdagi eskicha an'analar bilan kurashish, yangicha ilmiy, madaniy va ma'naviy asoslarni yaratish, ayniqsa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratildi**. Ular jamiyatni mustamlakachilik zulmiga qarshi uyg'otish va yangilashga intilgan ziyyolilar sifatida tarix sahnasiga chiqdilar.

Jadidlar ta'limdagi islohotlarni bir yoqlama intellektual yangilanish sifatida emas, balki millat istiqbolini belgilovchi strategik masala sifatida ko'rdilar. Ular yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning ongida erkinlik, milliy g'urur va Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish orqali Turkiston jamiyatini uyg'otishga intildilar. Bu yondashuv o'z davri uchun g'oyat yangicha va ijtimoiy-ma'naviy jihatdan jasoratli tashabbus edi.

**JADIDLIK HARAKATI** o'zining ma'rifiy faoliyatini faqat maktablar doirasida cheklab qo'ymadи. Ular ta'limni jamiyatning har bir qatlamiga ta'sir o'tkazuvchi kuch

sifatida ko'rgan holda, ayniqsa yosh avlodni ijtimoiy mas'uliyat, erkin fikrlash, milliy o'zlikni anglash va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratdilar. Bunday yondashuv ilm-fan va ma'naviyatni uyg'unlashtirish orqali madaniy, siyosiy va axloqiy yangilanishlarni yuzaga keltirdi.

Jadidlar ta'limdagi islohotlarni faqatgina diniy bilimlar doirasida emas, balki zamonaviy fanlar asosida tashkil etishga intildilar. Ular tashkil etgan maktablarda tarix, adabiyyot, geografiya, tabiiy fanlar kabi darslarga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bu orqali o'quvchilarning dunyoqarashi kengaytirilgan, mustaqil fikrlashga undalgan. **Aynan shu tarzda, jadidlar ta'lim orqali yosh avlodda vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishni ko'zlaganlar**.

Jadid maktablarining asosiy tamoyillaridan biri – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, milliy qadriyatlarni qadrhaydigan va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan shaxslar sifatida shakllantirish edi. Ularning ta'limiy faoliyati milliy uyg'onish g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yosh avlodni

mustamlakachilik siyosatiga qarshi fikrlay oladigan darajaga olib chiqishni ko'zlagan.

**JADIDLARNING INNOVATION QARASHLARI** nafaqat ta'lim tizimiga, balki keng ma'nodagi ijtimoiy va madaniy hayotga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ular an'anaviy diniy ta'limni zamonaviy fanlar bilan boyitish, maktablarni milliy ruhda qayta tashkil etish hamda yoshlarni zamonaviy tafakkur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali yangi Turkiston jamiyatini shakllantirishni maqsad qildi. Shuningdek, ular zamonaviy bilimlarni egallash, milliy o'zlikni anglash va istiqlol g'oyalariga sadoqatni singdirishni bir-biridan ajralmas jarayonlar deb bildilar. **Shu bois jadidlarning ta'limga oid yondashuvi – erkin fikrlaydigan, zamonaviy fanlar bilan qurollangan, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan avlodni kamol toptirishga qaratilgan edi**. Bu esa, o'z navbatida, Turkiston jamiyatida vatanparvarlik g'oyalarining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Jadidlar o'z faoliyatining asosiy yo'naliishlaridan biri sifatida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishni belgilagan edi. Ular o'qitish usullarini an'anaviy, faqatgina matnlarni yodlashga asoslangan metodlardan voz kechib, amaliy, interaktiv va zamonaviy pedagogik yondashuvlarga e'tibor qaratdi. Jadid pedagoglari o'quvchilarning bilim olishidan tashqari, mustaqil fikrlash, ilmiy mulohaza yuritish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berishdi. Bu borada ular o'qituvchilarni yangi uslub va metodikalarga tayyorlash, ilg'or tajribalarni joriy qilish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga harakat qildilar.

**JADIDLAR FAOLIYATINING YANA BIR MUHIM YO'NALISHI** milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlash masalasidir. Ular Turkiston xalqlarining boy tarixiy-madaniy merosini qadrlagan holda, ta'limda milliy



qadriyatlar, til va madaniyatni saqlash va rivojlantirish g'oyasini ilgari surdilar. Aynan shu orqali yosh avlodni milliy o'zligiga hurmat bilan qarashga, o'z yurtiga sadoqat bilan xizmat qilishga undadilar. Vatanparvarlik jadid ta'lif konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi edi. Shuningdek, jadidlar o'z ta'lif dasturlarida erkin va mustaqil fikrashni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladi. O'quvchilarga yod olish emas, balki tahlil qilish, shaxsiy xulosa chiqarish, ilmiy izlanishlar olib borish ko'nkmalarini singdirishga intildi.

**Ular yoshlarni yangiliklarni anglashga, taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga, shuningdek Vatan taqdiriga befarq bo'lmaslikka chaqirdilar.** Bu esa tabiiyki, zamonaviy tafakkur va vatanparvarlik ruhining uyg'unlashuviga olib keldi.

Jadidlar ta'lilda diniy va dunyoviy bilimlarni bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldiruvchi jihatlar sifatida ko'rди. Ularning fikricha, diniy bilimlar axloqiy poydevorni, dunyoviy fanlar esa zamonaviy tafakkurni mustahkamlovchi vositadir. Shu bois ular mакtab dasturlariga ilmiy fanlar bilan birga ma'naviy qadriyatlarni ham kiritdi. Bunday yondashuv yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida jadidlar maxsus maktablar tashkil etdi. Ushbu maktablar an'anaviy diniy darsliklar bilan cheklanmasdan, zamonaviy fanlar, adabiyot, tarix, geografiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan boyitildi. Natijada bu

maktablar nafaqat ilmiy jihatdan kuchli shaxslarni tayyorladi, balki yosh avlodda o'z yurtiga, millatiga sadoqatl bo'lish, vatanparvarlik hissini tarbiyalashga xizmat qildi. Bu esa Turkiston jamiyatida milliy uyg'onish g'oyalarining chuqur ildiz otishiga zamin yaratdi.

Jadidlar faqat ta'lif tizimini isloh qilish bilan cheklanmagan, balki butun jamiyatni modernizatsiya qilish, yangi dunyoqarashni shakllantirish va yangiliklarni qabul qilish madaniyatini targ'ib qilishni o'zlarining bosh maqsadlaridan biri sifatida belgilaganlar. **Ular yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy va madaniy yangilanishni esa milliy taraqqiyotning poydevori deb bildilar.** Jadidlarning qarashlarida jamiyatning kelajagi, avvalo, yangilikka ochiqlik, ilm-fan yutuqlarini egallash va o'zgarishlarga intilish orqali ta'minlanishi lozim edi. Bu yondashuv nafaqat mакtab o'quvchilari, balki keng jamoatchilik tafakkurini yangilashga xizmat qildi.

Jadidlar ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratgan. Ular o'zlarining g'oyaviy asoslarini chuqurlashtirish, ta'lif mazmunini boyitish va amaliy hayot bilan uyg'unlashtirish maqsadida tarix, geografiya, madaniyat, siyosat va boshqa sohalarda ilmiy izlanishlar olib borgan. Bu faoliyat natijasida ko'plab ilmiy va metodik ishlasmalar yuzaga kelib, nafaqat ta'lif sohasida, balki ijtimoiy tafakkurda ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

#### JADIDLARNING MA'RIFIY HARAKATI madaniy

yangilanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilgan. Ular yoshlarni yangicha fikrashga o'rgatish, zamonaviy tafakkur asosida tarbiyalash orqali vatanparvarlik, milliy g'urur va mustaqillik g'oyalarini shakllantirishga intilgan. Eski mакtab va diniy ta'lif tizimini takomillashtirish, uni xalqning zamonaviy ehtiyojlariga moslashtirish jadidlarning asosiy strategik vazifalaridan biri bo'lgan. Bu orqali ular milliy o'zlikni asrash bilan birga, global tafakkur sari intilishga yo'l ochgan.

Jadidlarning ta'lif sohasidagi innovatsiyalari kengroq ijtimoiy va siyosiy hayotda ham muhim o'rinn egalladi. Ular o'quv jarayonida nafaqat bilim berish, balki yoshlarni ijtimoiy faollikka undash, jamiyatdagi dolzarb muammolarni anglashga, yangicha fikrashga va mas'uliyatni his etishga o'rgatishni maqsad qilgan. Jadidlarning siyosiy qarashlari esa mustamlakachilik siyosatiga qarshi norozilik ruhida shakllanib, milliy mustaqillik, erkinlik va o'zlikni asrash g'oyalarini ilgari surgan. **Bu borada ularning asosiy maqsadi yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasiga tayyorlash, vatanparvarlikni g'oyaviy-tarbiyaviy mezonga aylantirish edi.** Shu bois Turkiston jadidlarning ma'rifiy va siyosiy faoliyati faqat o'z zamonasi uchun emas, balki bugungi kun uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Ularning ta'limdagi islohotlari, madaniy va siyosiy yangilanish yo'lidagi sa'y-harakatlari Turkiston jamiyatining uyg'onishida beqiyos rol o'ynadi. **Jadidlik harakatining boy merosi, bugungi kunda**

**ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning faoliyatini chuqur o'rganish, nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki zamonaviy ta'lif va vatanparvarlik tarbiyasi tizimini takomillashtirishda ham muhim nazariy asos bo'la oladi.**

Jadidlik harakati o'z zamonasi uchun nihoyatda ilg'or va jasoratli ijtimoiy-ma'naviy hodisa bo'lib, u Turkiston xalqlari ongida milliy uyg'onish, erkin fikr va Vatanga sadoqat ruhini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Harakat vakillari o'z faoliyatlarida ta'lifni modernizatsiya qilish, milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarni zamonaviy ilm-fan asosida tarbiyalash orqali jamiyatni uyg'otishga harakat qildilar. Ularning faoliyati, ayniqsa, vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish va targ'ib etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. **Bugungi kunda ham jadidlar merosi – ularning ta'lif, madaniyat va siyosatdagi yondashuvlari O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lida muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.** Jadidlarning tarixiy tajribasi, zamonaviy ta'lif va tarbiya tizimini takomillashtirishda bebahon manba sifatida e'tirof etilishi lozim.

**Sanjar AHMEDOV,  
Oriental universiteti  
dotsenti v.b.,  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori.  
Kichik serjant Abbosxon  
SAFARALIYEV**



# MOZIYGA QAYTIB

Anakondada bir xususiyat mavjud: bo'ljak qurbanini shafqatsiz, sovuq nigohi bilan avval gipnoz qilib, o'z yo'rig'iga solib, shol holatga kelgach, keyin domiga tortadi. Biroq asablari mustahkam, qo'rqmas mavjudotlarga anakondaning bu nayrangi ta'sir etmas ekan. Qarang, hatto yovvoyi tabiatda ham epchillig-u, vahshiyona kuch emas, qat'iylilik, dushman irodasini yengish kabi xislatlarning mavjudligi hayratga sazovor holdir.

Men ilon haqida bejiz so'z ochmadim. Chunki uning fe'l-atvori Turkiston xalqlariga shafqatsizlarcha tajovuz qilgan chor Rossiysi-yu sho'rolar istibdod zulmning aynan o'zi. Turon eli bag'riga sirg'alib kirgan ajdarho – mustabid tuzum zahrini yuz yildan ziyodroq tatib ko'rdi. Bu ajdarho o'zbekning ne-ne daholari, yiqlisa tiragulik tayanchlari, botir-u bahodirlarini o'z domiga tortmagan deysiz. Bir asrlik tarix millatning tahqirlangan qadri, toptalgan qadriyatlar, qatag'onga uchragan shahid farzandlari, boyliklari talangan, oyoqosti zamini, sho'ro tuzumiga qurbanlik qilingan erki bilan yakun topdi. So'zimiz avvalida, hatto yovvoyi tabiatda ham dushman irodasini yengish kuchi borligi haqida gapirdik. Oliy maqomga ega insoniyatda esa bu kuch ming chandon yuqori bo'lishi shubhasiz.

Xo'sh, mustamlakachilik yurtimizni ta'qib etganida xalqimiz uning nayranglari oldida qay holatda turdi? Balki, oramizda o'tgan kunlarni, tarixni titkilashdan nima foyda, deguvchilar topilar. Ammo moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrli, deydilar. Tarix biz uchun oyna, biz bu ko'zgu oraqlari o'zligimizni chuqurroq anglab, ajdodlarimiz xatosini takrorlamaslikka, o'z vaqtida keragidan ortiq qon to'kilgan hurligimizni jon qadar asrashga shay turmog'imiz shart. Dunyoga yuz tutayotgan ona diyorimizni yanada rivojlantirish yo'lida bedor bo'lmos' imiz lozim. Zero faylasuflar ta'kidlaganidek, "Yashashga va erkinlikka har kuni ular uchun kurashuvchi odamgina loyiqdir". Hassos shoir Abdulla Oripov kechagi kuminizga murojaat qilib,

*Mashrab osilganda qayoqda eding?  
Cho'lpon otilganda qayoqda eding?  
Surishtirganmideng Qodiriyni yo  
Qalqon bo'lganmideng kelganda balo?  
Hukmlar o'qilur sening nomingdan,  
Tarixlar to'qilur sening nomingdan.  
Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?  
Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?  
Qarshingda hasratli o'ya tolaman,  
Qachon xalq bo'lasan ey, sen – olomon?!*

deya xalqimizga nido qiladi. Saksoninchchi yillarda yaratilgan isyonkor bu she'r mustabid tuzum yo'rig'ida hamon o'zligini anglay olmayotgan xalqimizning karaxt holatiga tutilgan ko'zgu edi.

Har birimiz xalqning bir vakili, yurt kelajagi uchun javobgar insonlarmiz. Asrlar davomida bobolarimiz qon yutib kutgan Hurlik quyoshi mana o'ttiz to'rt yildirki, bizga nasib etib, elimizga nur sochib turibdi. Biroq o'tgan armonli kunlar ertaga takrorlanmasligi, xalqimiz erk-u irodasi o'zgalar manfaatiga qurbanlik qilinmasligi uchun keling, tarixga nazar tashlab, undan tegishli saboq olaylik.

Barchamizga ma'lumki, Vatan mustaqilligiga, xalq erkiga chetdan tahdid bo'lganida el orasidagi o'zaro nizolar, shaxsiy adovatlar chetga surilib maqsad bitta bo'ladi – dushmani yurtga yo'latmaslik, kerak bo'lsa uni tor-mor etish. Ammo yovga qarshi barcha barobar harakat qilmas ekan, yurtni istibdod zulmidan asrashga qodir qo'llar dushman makriga o'ynagan sotqin qo'llardan ustun bo'lolmas ekan, bu xalq mustabidlikka girifor bo'ladi. Uning sahifalariga erk yo'lida umrini qurban qilgan bobolarimiz jasorati bilan birga mustabid tuzum yo'rig'iga yurgan ajdodlarimiz xatosi ham bitilgan.

Men el ozodligi yo'lida umrini fido etgan jadid bobolarimizdan tortib, yurtning bo'ljak daho shoiri hisoblangan Usmon Nosirni yovga tortiq etgan xoin qo'llar haqida gapirishdan avval bir mulohazaga keldim. Ya'ni dushman yurt qonini so'rmoq ilinjida mamlakat qo'rg'oni bo'l mish qishloqlarga chirmoviq solganda u yerdag'i xalq yovga qanday munosabatda bo'ldi? Bu haqiqatni qishlog'imiz tarixi bitilgan kitobdan izlashga harakat qildim.

Bizning Rajabgardi qishlog'i vodiyning chekka hududi bo'lsada, o'z vaqtida badavlat, savodli va hunarmand insonlari bilan atrofga tanilgan. 1922-yillarda sho'rolar davlati Turkistonning barcha hududi qatori bu yerga ham "yaxshi niyat" bilan ilondek silliqqina kirib kelganida uning tuzog'iga ilinganlar karaxt holatda-yu oriyati uyg'oq er yigitlar uni yanchish maqsadida istilochilar "bosmachi" deya ta'rif bergan milliy ozodlik harakatida bo'lgan. O'zining mustamlakachilikka asoslangan yovuz niyatini go'yoki tenglik deb ataluvchi ezgu va'dalar yo'rgagiga o'ragan istilochilar xalqning bag'ri ochiq

va ishonuvchanligidan unumli foydalana oldi.

1926-yilda rayon tuzilgach, yuzlab qishloqlar qatori bizning qishloqda ham yer islohotidan so'ng dastlab artel, keyinchalik kolxozi tarkib topdi. Biroq mustabid tuzum hidi kelib turgan sovet davlatining nayrangleri bu yerdagi savodxon, ongi uyg'oq insonlarni befarq qoldirmasligi bosqinchilarga ayon edi. Shu sababli makkor yov xalq orasidagi ichki nizo-yu shaxsiy adovatlarni o'z manfaatiga bura oldi. Ya'ni dastlab kolxozga savodxon, ishbilarmon, elni ortidan ergashtirishga qodir insonlar rais, bosh hisobchi, ish yurituvchi, pattachi, o'n boshi kabi qator vazifalarga xalq tomonidan saylandi. Bu esa el orasidagi oriyati uyg'oq insonlarning yuzaga chiqishiga imkon berdi.

Istilochilarning endigi vazifasi esa, shubhasiz ularni yo'q qilish edi. Buning uchun millat ichidagi xoin qo'llar ishga solindi. Ya'ni yuqoridaqiz vazifalarda ishlashni istagan, biroq saylana olmagan yov tuzog'idagi alamzada dehqonlardan yangi hukumat "kambag'allar guruhi" tuzdi va ularga katta imkoniyat berildi. Voqealar davomini qishlog'imiz tarixi bitilgan kitobdan aynan keltirishga qaror qildim: "Kambag'allar guruhi"ning o'ndan ziyod a'zosi qishloqdagi kolxozi rahbarlari hamda obro'li, ishning ko'zini biladigan dehqon va hunarlilarni qulog (*mushtumzo'r*) qila boshladilar. Qulog qilish uchun "kambag'allar guruhi" qaror chiqarib bersa, rayondagi uchlilik komissiya: rayon ijro komiteti, kontrol komiteti va ichki ishlar bo'limidan bittadan a'zo bu qarorni tasdiqlab qo'l qo'ysa bo'lgani, ro'yxatga tushgan insonlar bola-chaqasi bilan so'roqsiz, sudsiz ko'chirma qilinlar, mol-mulki musodara qilinib, davlat foydasiga kim oshdi savdosida sotilar edi".

Kolxozlar tashkil topgandan boshlangan bu xunrezlikda dastlab qishloqdagi kolxozi rahbarlaridan

13 kishi oila a'zolari bilan jami ellik jon Ukrainianing Xerson viloyatiga surgun etilib, oila boshliqlari o'sha joyda qatl qilinadi. Kolxozga rahbarlik lavozimlarini esa "kambag'allar guruhi" a'zolari egallaydi. Ammo u qadar savodxon bo'lmagan uquvsiz bu kimsalar kolxozi ishini eplay olmay, oralarida o'zaro nizo chiqadi. Yana bu borada mustamlakachilarning puxta o'yangan rejasid ish beradi. "Kambag'allar guruhi" a'zolari ham kolxozi ishini ortga tortganlikda ayblanib, borsa qaytmas joylarga surgun etiladi. (*Chunki ularda ham isyonkor ruh bor edi-da*). Qishloqdagi ongi uyg'oq insonlarni bundan "cheenkakalash" 1941-yilga qadar davom etadi. O'z yetakchilarini yo'qotgan xalq esa o'z-o'zidan mustabid tuzumning manqurt xizmatkorlariga aylanadi. Bu holat butun mamlakat bo'ylab barcha sohalarda birdek amalga oshirilgan, millat qaddini ko'taruvchi jo'mard insonlar birdek yo'q qilingan. Eng alamlisi, mana shu xunrezliklarga do'ppi o'rnida bosh keltirgan xalq ichidagi sotqin qo'llar bosh-qosh bo'lgan. Bu ulkan xato esa ulug' millatimizni ajdarho domidagi asrlik zulmga mahkum etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz tarixdan o'z o'rnida faxr, o'z o'rnida saboq olaylik. Toki kelajakda, kelajak avlod ichida yov makriga sotilgan sotqin qo'llar aslo unmasin.

Shukronalar bo'lsinki, u kunlar bugun ortda qoldi. Istiqlol quyoshi sabab xalq yelkasiga oftob tegdi, qaddi ko'tarildi. Hurlik – bu yurtning sha'ni, millatning or-nomusi, avlodlar kelajagi. Bugun biz bu baxtning etaklarini sajdalar ila ko'zga suramiz.

Xalqim, o'tgan kunlar uchun seni biroz koyigan bo'lsam uzr. Chunki men ham sening bir vujudingman, baxtingni tilovchingman. Tong saharlar sajadagi ezgu tilagim: Buyuk bo'l, ulug' bo'l, eng asosiysi xalq bo'l, elim!

*Mulk Turon yurti eding – behisht eding,  
Beshta og'a birlashganda bir musht eding,  
Buyuklikdan ko'ksi baland – sarhush eding,  
O'zaniga intiq ummon – shaxt bo'l elim –  
Xalq bo'l, elim!*

*Parokanda eldan omad o'girar yuz –*

*Yelkang uzra qabariqdir ming qamchi iz,  
Til kuydirar bir tasalli, bir tayanch so'z,*

*Erk yo'lida bir so'z-u bir ahd bo'l elim –*

*Xalq bo'l, elim!*

*Bobolaring ulug' o'tgan – cho'ng muzaffar,  
Haq yo'lida mardona bo'l, bo'l samandar,  
Kelajaging – avlodning bor dunyonazar,  
Yov qo'llarin uzatolmas taxt bo'l elim –  
Xalq bo'l, elim!*

*Jannatmakon zamin erur bu ostona,  
Sajdasiga intiq bo'lgan ne peshona,*

*Toleyingni kiftingda tut chin mardona,  
Ahli dunyo ko'z tutgulik xalq bo'l elim –*

*Xalq bo'l, elim!*



Mushohada



# MEN NEGA YOZUVCHI BO'LMADIM?

Kecha yonimga yoshi oltmisdan oshgan kishi keldi. Yoshligida ijod qilib, jurnalimizda chiqqanini, o'rtada ancha yillar tanaffus bo'lib, nihoyat ijodga qaytganini aytdi. Tanaffusining boisini so'rasam, "tirikchilik, oila boqish"ni vaj qildi. Yana qitmirligim tutib: "Endi nega yozyapsiz?" deb so'radim. U esa yuzimga tikilib qarab, "Hazil qilyapsiz-a", dedi. Keyin o'zicha xulosa chiqardi, shekilli, qo'lyozmasini qo'ltilqab chiqib ketdi.

O'yab qoldim. Ijodda tanaffus bo'lishi mumkindir. Ijod uchun ma'lumot (baza) yig'ish yoki goho qalbni o'rtaydigan mavzular topilmasligi ham bordir... Ammo shunchaki, yo'l-yo'lakay "ijod" qiladiganlarga hayronman. Axir, yo'l-yo'lakay qilingan "ijod" yo'l-yo'lakay ham o'qilmasligi aniq-ku! Yozish kerak, yozish kerak, deyiladi. Bu gap hammaga ham taalluqli emasligini bilishimiz kerak. Masalan, bu gap menga tegishli emas. Chunki men o'zimning holimni bilaman. Yozsam, o'rtacha ijodkordan pastroq yozishim mumkindir. Ammo sep yoyganday uni hammaga ko'rsatib o'tirishni o'zimga ep bilmayman.

Holbuki, oramizda bunday ijodkorlar juda ko'p. Adabiyot - keng maydon, hamma unga sig'adi, deymiz. Ammo u yerda qolish vaqtning va o'quvchining hukmida. Afsuski, maydonga chiqishdan oldin ko'pchiligidan tomosha qilib, qaytishimizni ham bilamiz. Shunchaki ko'pkariga ot solib ko'ramiz, xolos. Men shu otga mindim, lekin ko'pkariga soloqlmayman. Azbaroyi, tomoshabinni chalg'itgim yo'q. Ha, shunday!

## BU MENIKI EMAS

Jurnalistikaga o'qishga kirdig-u uning noni qattiq ekanini aytishdi. Vaqtlar o'tib "Yoshlik" jurnalida amaliyot o'tab yurganimda rahmatli Luqmon Bo'rixonga maqolasifat qoralamamni berdim. O'qib chiqib, "E, zo'r narsa yozibsan-e", deb meni maqtadi. Jurnalning 2009-yil 2-sonida ustidan tahrir qilib, "Bahonaga o'ren qolmasin" sarlavhasi bilan berib yuboribdi. Shu, o'qib ko'raman, maqola meniki emas-da. Albatta, ustozimiz menga rag'bat bo'ladi, deb o'yagan. Ammo buni qabul qilishim qiyin bo'ldi.

Hikoyalari qoraladim, ko'nglim to'lmadi. Bir hikoya o'xshagan narsamni nufuzli gazeta tahrir bilan chiqaribdi, mening yozganimning asl mohiyati qolgan, xolos.

Yana nimalardir qoralab yuraman, ko'ngil qurg'ur to'lmaydi-da. Hech kimga ko'rsatmayman. Ilhom kelishini to'lg'oq tutayotgan ayol holiga o'xshatishadi-ku. Shu to'lg'oqni bosib, men ham qog'oz qoralab, bir chekkaga tashlab qo'yaman. Hech kim ko'rmasin, ko'rsa, uyalib qolmay, deyman.

## O'YLAB QOLDIM

Qodiriy "O'tkan kunlar"ni, Oybek "Navoiy"ni, Asqad Muxtor "Chinor"ni qanday yozdi ekan, deb hayron qolaman. U asarlarni qanday yozdi, deb o'yagan odamdan yaxshi ijodkor chiqadimi? Menimcha, chiqmaydi. Chunki o'ylagandan ko'ra yozib qo'yaqoladi. Bir katta ijodkorni bilaman. O'zini katta yozuvchi chog'laydi. Ammo nuqul o'zining asarini o'zi targ'ib qilishdan charchamaydi. Holbuki, yaxshi asar yozib qo'yan qijodkorlarning o'z asarlarini o'zlarini targ'ib qilib yurganini

ko'rmadim. Ular mashaqqat bilan yozdi. Rohat bilan o'quvchilar o'qiyapti. Uzoqqa bormaylik, rahmatli Luqmon Bo'rixon "Jaziramadagi odamlar", "Imom Moturidiy", "Sirli muallim", "Quyosh hali botmag'an" kabi asarlar yozgach, shuni o'qinglar demadi. Buyuk adiblarimizdan biri aytganidek, yozuvchini hech qachon hech kim ko'tarmaydi. Yaxshi yozuvchini yaxshi asarlar ko'taradi, yaxshi yozuvchini ko'tarilib ketganini hatto o'zi ham bilmay qoladi. Shunday ekan, yaxshi asar yuqumli kasallikka o'xshab, o'quvchidan o'quvchiga o'tadi, qalbdan chiqqani, albatta, qalbga yetadi.

Mahmud Sa'diy domla aytardi, dostonlarimizni hozirgi o'quvchilar o'qimaydi; o'qish kerak, shunda til o'zbekchalaşadi, yozganing ham ravon mutolaa qilinadi... Shu narsa ham menga yetishmadi shekilli. "Alpomish" va "Go'ro'g'li"ni chala o'qigan odamdan zo'r ijodkor chiqadimi? Chiqmaydi. Chiqsa ham o'sha - o'z asarini o'zi targ'ib qiladigan ijodkor chiqadi.

Men adabiyotda fonogramma yo'q deb o'ylardim. Afsuski, bor ekan. Mana, shu o'rtacha asarlarning ham ko'plari fonogramma mahsuli, deb o'ylayman. Chunki ma'lumlarining guvohi bo'lganman. Hozir o'shalarning ko'pchiligi uyushmaga a'zo. Hammagini qoyil qilgandek yuribdi. O'shalarni yozuvchi qilgan yozuvchilar chin dunyoga ketdi. "Soxta" yozuvchilar esa endi she'r yozishni boshlabdi. Eh, bularni ko'rib, eshitib, yuraging bir o'rtanadi-bir o'rtanadi. Yana qancha joylarda bunday soxtaliklar bo'lgani bizga noma'lum. Ammo shularni ko'rib ham qo'lga oshkora qalam olishga jur'at qilolmasdim. Qilolmadim ham. Yana kim biladi deysiz?! O'yab qolaman...

## HAQIQATGA YAQIN

**Abdulla Qahhor yozadi:** "Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talant kerak, lekin yozilgan narsani o'chirish, kitobxonga zarur gaplarnigina qoldirish uchun talantning o'ziga kifoya qilmaydi, insof ham kerak". Shukur Xolmirzayev aytadiki, "Bundan chiqdi, yozuvchilik kasb emas, hunar ham emas, qismat ekan". Murod Muhammad Do'st nazarida, "Xudoning nazari tushmasa - hammasi bekor". Sobir O'nar deydi, "Inson, kim bo'lmasin, yagona yo'ldan ketishi - qalbga intilishi zarur". Bu mulohazalar turlichadir. Ammo haqiqat. Chunki ular nimagadir yetishib, bu fikrga kelgan.

Ishxonamizga bobosi, buvisi, otasi, onasi bilan maktab o'quvchilarini keladi. "Bolam she'r yozadi, kitob chiqarish kerak", deydi bobosi. "Keyin-chi?" deyman. "E, shu Zulfiya mukofotiga harakat qilib ko'rmoqchi", deb mo'liraydi. Essiz umr, essiz boba, essiz qog'oz. Bobo ham "nabiram zo'r she'r yozadi, bema'lal pensiyamdan kitobini chiqarib beraman", deb umid qilib kelgani ma'lum. Ammo

maqsad mukofot uchun yozish ekanini bilganingda tepa soching tip-tikka bo'ladi. Kitob javonimda mukofot, yo'l-yo'lakay uchun yozilgan kitoblar talaygina. Ularni "mukofotchi" va asarini o'zi targ'ib qiluvchilar mena o'qish uchun berishgan. Men esa ularni javonga taxlab qo'yanman. Chunki ular vaqt ketkazib o'qishga arzimaydi. Sotib olib o'qish mumkin bo'lgandan ham kim oladi? Menimcha, hech kim. Dunyoda eng qimmat narsa vaqt ekanini bilaman. U dunyoda ham umringni nimaga sarflagan haqidagi savol-javoblarga, "mukofot uchun yo'l-yo'lakay shig'irlar yozdim", deyishdan qo'rqaman! Ommaga bo'limg'ur so'z aytishdan qo'rqaman.

## VAQTNING HUKMI

Yoshligimda uyimiz cherdagida birtalay ruscha-o'zbekcha kitoblar va gazeta-jurnallar bo'lardi. Biz ularni bittabitta olib tushib, opalarim bilan o'qirdik. Jurnallardagi rasmlardan hayratga tushib, ularda yozilgan har bir narsaga ishonardik. Shular orqali ancha-muncha savodimiz chiqqan. Qishlog'imizga har-har zamonda fotograf kelib, oilaviy suratga olar, keyingi kelishiga rasmlarimizni berib ketardi. Avvalgi hayratlarimizni o'zgacha zavq bilan eslayman, vaholanki, o'sha hayratlarni hozir topolmayman. Hozir uyimda kichkinagina kutubxonam bor. Ammo kitoblarning ko'plari hali o'qilmagan. U kitoblar mendan xafa. Chunki vaqtimni qo'limdag'i telefon o'g'irlab qo'yayapti. Bilib-bilmay internetga kirib qolasiz.

Internet - insonlardagi hayrat va zavqni yo'qtoyapti!

Bugunga kelib chekka qishloqlarda ham har bir uyda bittadan, ehtimol, bir nechtdan uyali telefon bor desam adashmayman. Qishlog'imizda qo'likalta, uyida yeyishga noni yo'q. Ammo qo'lida dunyodan xabar beradigan telefonni bor qadrondimga kunora qo'ng'itoq qilib, vaqtinagi shunday o'tkazma, deb oqil bo'laman. Ammo odamning o'zida bo'lmasa qiyin ekan. Balki men ham tinmay kitob o'qisam, katta olim yo yozuvchi bo'larmidim. Hamma peshonasidagini ko'radi deymiz-u. Allohning sendan harakat, mendan barakat, degan joyi bor-da. Shu tomonini ham o'ylash kerak. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev "Kitob o'qish - mehnat", deydi. Har kim ham bu mehnatri bo'yinga olavermaydi. Ishonib aytamanki, telefonda uch yuz betlik kitobni uncha-muncha odam o'qiy olmaydi.

Hozir yurtimizda sanoqli gazeta-jurnal qolgan. Ammo ularni kim o'qiyapti, degan savol meni qiynaydi! "Yoshlik" - O'zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnal. U jurnalni butun yurtimizning yoshlarini o'qishi kerak bo'lgan jurnaldir. Ammo hozir sanoqli (adadi - 500 ta)

odamgina o'qiyapti. Uning ham yuz donasi o'qilyaptimiyo'qmi, shubham bor. Masalan, siz o'qiyapsizmi?

Ko'pchilik telefoniga kelgan kerakli-keraksiz ma'lumot va xabarlar bilan vaqtini sarflayapti-ku... O'qilmagan matbuot million nusxada chiqsa ham, mafkuraga xizmat qilmaydi! Qachonki, ichki xotirjamlikda bo'lsangizgina mutolaa qilasiz, fikrlaysiz. O'sha xotirjamlik qachon bo'ladi?! Holbuki, tashvishingizni o'zingizdan uzoqlashtirganingizda. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov aytganidek: **"Kitob degan narsa insonning tabiat, mohiyati bilan bog'liq bo'lgan buyuk mo'jidir. Inson bor ekan, kitob ham qay bir shaklda yashayveradi"**. Istaymizmiyo'qmi, vaqtini orqaga qaytarib bo'lmaydi. Vaqt esa yugurik... Vaqt o'z kuchini ko'rsatadi. Qachonki internetning tugmasi bosilsa, o'chirilsa, hammamiz kitob va gazeta-jurnallarning mutolaasiga qaytarmiz ehtimol... Balki, shu mulohazalarim bilan tor o'layotgandirman. Shuning uchun yozganlarimni oshkor qilishga cho'chiyotgandirman. Vaholanki, ijodkorlik hayratlari menda yo'qdır. Yo'q, baribir havaskorman. Havaskor ijodkorni esa o'zimga sig'dira olmayman.

## YOZUVCHINING KO'ZI

Hayotning o'zi katta maktab. Yonimizdag'i insonlarga boqib, o'zimizni ularga solishtirib, xatti-harakatimizni to'g'rilaymiz. Bir ijodkorni bilaman. Bir qarasam yozuvchi, bir qarasam jurnalist, bir qarasam shoir. Ammo nuqul ovqat haqida yozadi. Yozuvchiligi, shoirligi, jurnalistligiga havas qilmayman. Chunki uni o'sha yo'l-yo'lakay va o'zini targ'ib qilishdan charchamaydigan ijodkor sirasidan deb bilaman.

Tengqurlarim, bizdan yoshi ulug'roqlarining ijodi menga negadir maydalashgandek tuyulmoqda. Ko'pchiligi ijodni yaxshi boshladida, davom ettirmay qo'ydi. Yo'ular ham tirikchilik ortidan yugurgilab ketdimikan?! Yoki bu bo'lar-bo'lmas kitoblar targ'ibotida adashayotgandirman.

Ertaga g'alvir suvdan ko'tarilsa, ulardan nima qoladi?! U yog'ini o'zi va Xudo biladi.

**"Ijad - bu "isyon" demak"**, ana shu isyon menda yo'qligini bilaman. Yozuvchida - ikkito ko'z muhim: yozuvchilik va adabiyotshunoslik... Ana shu nigoh menda yetishmasligi uchun yozganlarimni oshkor qilolmayman. Ko'nglim buni xohlama ydi. Shunchaki mulohazalarimni siz bilan o'rtoqlashmoqchi edim.

O'yab qolaman... Buyuk shoirimiz aytganidek, mukammal ko'rmoqchi bo'ldik dunyoni, yetuk bo'lmaslik o'zimiz, biroq... yana kim biladi deysiz?!

**G'iyosiddin O'NAR**

# JAMIYAT TANASIDAGI SARATON

Korrupsiya – lotincha sorrumpere, corruptio – “buzish, buzilish, poraxo’rlik, o’zboshimchalik, talon-toroi, parchalanish” degan lug’aviy ma’nolarni bildiradi. Odatda, mansab mavqeyini shaxsiy maqsadlar yo’lida suiiste’mol qilishni anglatuvchi atama.

U demokratiya va huquq ustuvorligiga putur yetkazib, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, erkin bozor faoliyatiga to’sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, poraxo’rlik va boshqa jinoyatlar ildiz otishi uchun sharoit yaratadi.

2017-yil 4-yanvardan kuchga kirgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida bu illatga va unga doir tushunchalarga ta’rif berilgan. Unga ko’ra:

**korrupsiya** shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarni yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarni ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi;

**korrupsiyaga oid huquqbazarlik** korrupsiya alomatlariga ega bo’lgan, sodir etilgani uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**manfaatlar to’qnashuvi** – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o’z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko’rsatayotgan yoxud ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o’rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (*mayjud manfaatlar to’qnashuvi*) yoki yuzaga kelishi mumkin bo’lgan (*ehtimoliy manfaatlar to’qnashuvi*) vaziyat.

**Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud:**

**ichki nazorat** – bu usul boshqaruv apparatining o’zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (*har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlarini tuzish orqali*) yaratishni taqozo etadi. Yurtimizda ham aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan;

**tashqi nazorat** – bu usulda ijro apparatiga bo’ysunmaydigan tuzilmalarning mustaqilligini

yanada oshirish nazarda tutilib, aynan ular orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Misol uchun, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko’proq erkinlik berish;

**kuchli saylov tizimi** – demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik. Korrupsiyaga saylovlardan orqali ta’sir o’tkazish eng samarali usullardan biri hisoblanadi;

**jamoatchilik nazorati** – bu usul eng samaralisi hisoblanadi va fuqarolar tomonidan bevosita hamda eng natijador shakli – fuqarolik jamiyatni institutlari orqali amalga oshiriladi. Bunda barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar har bir ishi va faoliyati uchun keng jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdor bo’ladi, keng jamoatchilik va fuqarolar tomonidan ularning faoliyati ustidan har tomonlama nazorat olib boriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Shvetsiya va Singapur kabi davlatlar tajribasi yuqori baholanadi.

Endi ayrim ma’lumotlarga to’xtalsak. Dunyo bo’ylab har yili korrupsiya oqibatida uch trillion dollarдан ortiq mablag’ isrof qilinadi.

Korrupsiyalashgan tizimda taraqqiyot bo’lmaydi, tadbirkorlik subyektlariga qulay investitsiya muhitiga yaratilishiha to’siq bo’ladi.

Ijtimoiy xizmatlar (*maktab, shifoxona, yo’llar, kommunal xizmat va boshqalar*) ko’rsatish uchun ajratilayotgan mablag’larning maqsadli sarflanmasligiga olib keladi, bu esa xizmatlar sifatini yomonlashtiradi.

Pul mablag’lari ko’p va tanish-bilish aloqalari yuqori bo’lgan shaxslarga qonunlar va davlat organlarining normativ hujjatlarini o’z manfaatlaridan kelib chiqib o’zgartirish imkoniyatiga ega bo’lish uchun sharoit yaratadi. Davlat organlariga va mansabdor shaxslarga ishonch yo’qoladi.

Muxtasar aytganda, korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatuvchi xavfli illat. Uning ta’siri ostida fuqarolarda adolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonch yo’qoladi. Shu bois har qanday jamiyat va davlat uchun ushu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masaladir.

Fikrimizga Prezidentimizning 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha milliy kengash yig’ilishida alohida ta’kidlab aytgan quyidagi so’zlari bilan yakun yasasak:

“Hammamiz yagona kuch bo’lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniyalar, ziyorilar, yozuvchi va shoirlar, san’at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak.”

**Davronjon AHMEDOV,**  
Bosh prokuratura boshqarma  
katta prokurori.  
**Faxriddin BEGASHEV,**  
O’zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokuraturasi bo’lim boshlig’i



Mulohaza

# Finlyandiyada PORAXO'RLIK YO'Q. NIMA UCHUN?

Finlyandiyada korrupsiya bo'lmagan, ommaviy poraxo'rlik hozir ham yo'q va kelajakda ham bo'lmaydi, deyishadi.

Buning sabablari shuki, azaldan finlyandiylaliklarda dabdabali hayot kechirishga qiziqish, intilish yo'q. Ular bunday turmush tarzini o'ta asrlardan qolgan illat va hashamord hayot kechirish faqat tarixning o'sha davrlariga qaytish, deb bilar ekan.

Finlar o'z millatdoshlari, vatandoshlari hisobiga boyishni xalqi kelajagiga xiyonat; faqat nasli buzilgan, zoti ayniganlar o'z qardoshiga bunday munosabatda bo'ladilar, deb biladilar. "Agar sen razil bo'lmasang, o'g'rilik qilma", degan masallari bor.

Poraxo'rlikni o'z farzandlariyu nevara-chevaralar, ularning haqqiga xiyonatkorlik hisoblaydilar va buni shunday talqin etadir: "Sen poraxo'r, o'g'ri bo'lsang, avlodlarining ham xuddi shu "mактаб"da o'qyidi, hayotini shu yo'lda davom ettiradi. Ma'naviy majruhlarga o'z farzandi va avlodlariga dushmanlik qildilar".

**FINLAR:** "O'g'ri doim qilmishlari oshkor bo'lib, haqiqat tantana qilishidan hadiksirab, xavotirda yashaydigan qo'rqaq odam, deb izohlaydilar. Bunday kishilar hayotda hech qachon erkin bo'lomaydilar, ular jamiyat ichidagi quvg'indirlar. El ulardan nafratlanan".

Finlar farzandlarini qayergadir tanishbilinching o'rta tushishi yoki "yo'lini topish" orqali joylashtirishni o'z dilbandiga qattiq zarar keltirish, yomonlik qilish, deb biladilar. Chunki qing'ir usullar bilan o'qishga, ishga joylashgan, nimalargadir erishgan bola hayot yo'llarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Finlar bolalariga yengil hayot yo'lini "sovg'a qilish" bilan ota-onasi o'z dilbandining baxtli bo'lishidan ko'ra muammolar girdobiga tushishiga sababchi bo'ladi, deyidilar. Bu muammolar farzandning mustaqilligi yo'qligida, yoshiga nomunosib ravishda rivojlanishdan orqada qolishi, ma'nani norasoligi, o'z kuchi bilan hech narsaga erisholmaydigan notavonga aylanishida ko'rindi. "Faqt ahmoq odamlargina bolalarining kelajagini muammolarga girifor qilib ketishi mumkin", deydi finlar.

Ayni shu ma'lumotlarni o'qish arafasida qadrondim so'zlab berdi: yirik, e'tiborli tashkilotning yangi rahbari ko'p yillardan buyon ishlab kelgan xodimni "bugungi kun talablariga javob bermaslik" mezoni bilan ishdon bo'shatib, o'mniga "o'zi yaqindan tanigan, ayni sohani ipidan ignasigacha yaxshi biladigan" yangi mutaxassisni ishga olib, jamoaga tanishtirdi. Yangi xodim ishlaydigan xonasiga kirib kelib, o'tirganlardan so'radi: "Bu qanday bo'lim? Nima ishlar bilan shug'ullanadi? Ayni boroda chiqqan qarorlar, hujjatlar bilan tanishib olishim kerak endi..."

**IJTIMOIY TARMOQDA** e'lon qilingan yuqorida ma'lumotlarni o'qib, finlyandiylaliklarga dastlab havasim keldi. Birdan: "Halollik, o'zgalarining haqqiga xiyonat qilmaslik, ota-onasi bolalarini halol luqma bilan boqib



ulg'aytirishining nechog'li muhimligi, hasaddan nafratlanib, havas bilan yashash, inson o'ziga ravo ko'rgan katta-yu kichik yaxshiliklarni boshqalarga ham ilinishing xosiyatlari, mehr-muruvvat ulashishda bolaning "o'zinginki" yoki "begonasi" bo'lmasligi... nainki moddiy ne'matlar borasidagi oldi-berdilarda, balki muomala-munosabatlarda ham bir-birlarining haq-huquqlari chegarasini muqaddas deb bilgan xalqimizda asrlar davomida xuddi shunday, balki bundan ham yuksak hikmat, e'tiqodlarga asoslangan an'ana, qadriyatlar turmush tarzi bo'lib kelgan-kul!" degan fikr ko'zimni ochgandek bo'ldi.

...Mahallalardagi qator hovlilar darvozalariga qulf solinmasligi, tunda daydi kuchuklar kirib narsalarga tegmasligi uchungina shunchaki zanjir bo'lishi; savdo ahli namoz yoki boshqa sabablar bilan ketadigan bo'lsa, ish rastasining ustini choyshab bilan yoki do'kon eshidigini yuziga yopibgina qoldirishi; mevazor bog'lar, qovun-tarvuz, sabzavot polizlari shundoq ochiqlikda bo'lsa-da, ularga birov beso'rog kirmasligi; boymi, kambag'almi - olim yoki hunarmand ustaga shogirdlikka berayotganda bolasi ilm-u hunar o'rganish yo'lida astoydil mehnat-u mashaqqat tortishi uchun "eti sizniki, suyagi meniki" degan bitimga rozi bo'lishi; homilador ayol hattoki xayolan nimalargadir intiq-intizor, zor bo'lmasin deb, hali tug'ilmagan bolaning-da haqqini ta'minlash ajodolarimizning oddiy hayot tarzi bo'lgan-ku!

Yevropaning mashhur olim-u faylasuflari dunyo tamaddunining oltin halqlari bo'lgan Birinchi, Ikkinci Renessans qadim Turonzaminda ildiz otib, rivojlanib, insoniyat tarixiga zarhal sahifalar bo'lib yozilgandan keyin yevropaliklar uni biroz o'zgartirib, moslashtirib davom etirganliklarini rasman e'tirof etadilar.



Renessanslar tamal toshini qo'yanlar... Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Farg'oniy, Buxoriy, Zamashxariy, Termiziy, Alisher Navoiy asarlari va ular haqida bizga yetib kelgan tarixiy ma'lumotlarda yaraqlab turadigan fazilatlari - halollik, halollik va yana yuksak darajadagi halollik! Ajodolarimiz o'zları tishlagan luqmaning, farzandlariga tutiladigan rizq-u nasibaning, jamiyat a'zolari o'rtasidagi oldi-berdilar va munosabatlarning halolligiga gard tushishini ikki dunyo saodati inqirozining boshlanishi deb bilganlar.

**SHULARNI O'YLAB...**

Yo'q, his-tuyg'ularga berilish, momoyu bobolarimiz ibratlari haqida she're-u dostonlar o'qish, chiroli entikishlardan foyda chiqqanda, balki, jamiyatimiz allaqachon korrupsiya yukidan qutulib ketgan bo'larmidi? Bu borada qat'iyat bilan har kuni har qadamimizda amalni ishlarga o'tish bugun oldimizga qo'yilgan tarixiy maqsad - Uchinchi Renessans sari yuksalish pillapoyalari bo'lishi mumkin.

Toki "Mening bolam, mening yaqinlarim, mening uyim, mening hayotim, mening yurish-turishim, mening maoshim, mening obro'yim qanday qilib bo'lmasin, boshqalarnikidan yaxshiroq, chiroliroq, balandoq bo'lishi kerak!" degan qora qurtni qalbimizdan sug'urib tashlab, "Naslim toza bo'lishi uchun bolalarimga mehnatinga yarasha topganimdan rizq-nasiba yediraman; mening mansab-u mavqeyim boshqalarning haq-huquqini o'zlashtirishimga, kamsitishimga imkon bermaydi; falonchining bilimi, malakalari, o'z ishiga sadoqati yuksak darajada bo'lganligi uchun u rag'bat, martabaga loyiq; bolalarim mansabim soyasida sudralib yurib emas, mehnat va intilish bilan yetgan bilim-u mahoratlari bilan jamiyat rivojiga hissa qo'shishi kerak; bu Vatandagi barcha ezguliklar, yaxshiliklar, imkoniyatlarning kengayishi, ko'payishiga vatandoshlarim bilan birdek mas'ul bo'lganimiz kabi, ulardan birdek bahramand bo'lishga hammamiz haqlimiz" degan e'tiqod amali hayotimiz tomirlariga toza havo kabi oqib kirmog'i shart.

Yoshlarni vatanparvarlik, xalqparvarlik, bag'rikenglik ruhida tarbiyalash mas'uliyatining mag'izi ular ongiga halollik, xolislik, jamiyat a'zolarining har jihatdan tengligini tarix saboqlari, hayot haqiqatlari, kundalik turmushimiz amaliyotlari orqali ishonch-u e'tiqod darajasida singdirishdir. So'zimiz bilan ishimiz bir joydan chiqmas ekan, tilda qanchalar yaqin bo'lmaylik, dilda ajodolar qadr-qimmatini baland etgan turmush tarzidan uzoqlashib boraveramiz.

...1980-yillarda. "Saodat" jurnalida ishlaridim. Bosh muharririmiz shoira Zulfiya sobiq Sovet xotin-qizlar qo'mitasi prezidiumi a'zosi bo'lsalar-da, u idoraning

tadbirlari, yig'inlariga sira bormasdi. Taklifnomalar kelishi bilan o'rriboslarlariga: "Xolidaxon, siz borib keling", derdi. Hayron bo'lardik: "Moskvada maza qilib aylanib kelmaydilarmi?" Shunda bir voqeani so'zlab bergandi: "Bir yili Moskvaga, xotin-qizlar qo'mitasi tadbiriga chaqirishdi. Idoraga kirib borganimda, xodimalardan biri:

- Zulfiya, O'zbekistonda uzum pishdimi?

- deb so'radi.

- Ha, g'arq pishdi, - dedim.

- Nahotki ikki kilogina olib kelish mumkin bo'lmasa? - dedi yana u.

- Mumkin, - deb javob berdim men.

- Lekin bizning xalqimizda ayollarning ko'chada og'ir yuklar ko'tarib yurishi uyat sanaladi. Shuning uchun men katta sumkalar olib yurmayman...

Shu muloqtdan so'ng Zulfiya opaga nisbatan qo'mitaning deyarli barcha a'zolari munosabati o'zgaradi: rasmiy sovuq muomalalar, boshqalarga qaraganda ikki karra ko'p savol-javob, hisob-kitoblar. Buning ustiga, tadbir tugagan kuni ittifodosh respublikalardan kelgan barcha vakillarga samolyot uchun chiptaga buyurtma berilgani-yu, Zulfiya opa "eslaridan chiqib" qolganini aytishganda, ustoz: "Men bu dargohning ostonasini qaytib bosmayman", deb chiqib ketgan ekanlar.

Qalbimda ota-onam, mahalladoshlarim, ustozlarim, katta avloddan eshitgan, ularda ko'rganim bu kabi voqealar chiroq kabi yonib turadi, bu yorug'likni shaxsiy xudbinliklar, nafs vasvasasi bilan xiralashtirish, o'chirish, ular ibratidan yuz o'girish... Alloh saqlasin. Zero ong-u shuuri oppoq qog'ozdek bo'lgan naslimiz tarixning biz haqimizdagи sahifalaridan qanday saboq olishini istaymiz?

**BIR NECHA YIL AVVAL**

yig'inlariga berilishida Prezidentimiz "halollik vaksinasini" haqida so'z yuritgan edi. Bu bilan birinchi navbatda, "adolat peshvo"lari hisoblangan qonun ustuvorligiga mas'ul shaxslar, katta-kichik amaldorlarga qarata halol ishslash, korrupsiyaga faqat og'izda emas, amalda rioxal qilish haqida kuyinib gapirgan edi. Ammo ming afsuski, hamon turli axborot vositalarida "qaysidir prokurorining 90 ming AQSh dollarini pora sifatida olayotganda ushlangani-yu yana qaysidir sobiq amaldorning chet elda falon million dollarga teng mulki borligi" ochiqlanganiga oid xabarlarga ko'zimiz tushmoqda.

Nima ham derdin, bu hayot bir imtihon ekan-da. Undan qanday o'tish har kimning o'ziga - vijdoniga bog'liq, albatta. Faqt kun kelib barcha-barchasiga javob berishni hamma ham o'yamas ekan. Bu besh kunlik dunyoda kelmasa, chin dunyoda jamiki amallarimiz, savob-u gunohlarimiz uchun javob berish barchaga birdek teng - sinov deyiladi muqaddas kalomlarda.

Shunday. Faqt bu "sinov"ga hamma ishongan, o'zidan qo'rqqanida edi...

**Muhtarama ULUG'JAVA,**  
**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi**

## Chegara qo'shinlarida

Mamlakatimizning olis chegaraoldi hududlaridagi umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va turli yo'nalishlardagi sport to'garaklarida jismonan chiniqtirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari hamda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish instituti hamkorligida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



# YOSHLARNI SPORTGA jalb etish yo'lida



Jumladan, bir guruh Chegara qo'shinlari harbiy sportchilar kelgusida murabbiylilik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun oliygohning qayta tayyorlov va malaka oshirish kurslarida o'qitildi.

Tayyorlov kurslari dastlab nazariy mashg'ulotlar bilan boshlanib, unda harbiy xizmatchilarga maskanning ilmiy unvonga ega mutaxassislari tomonidan murabbiyliking sir-asrorlari, ustoz pozitsiyasi, sportchi psixologiyasi va har bir sport turining o'ziga xosligi xususida tushunchalar berildi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni sport to'garaklariga jalb etish va ular bilan mashg'ulotlarni tashkil qilishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan ko'plab jihatlar xususida to'xtalib o'tildi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida esa malakali murabbiylar tomonidan tinglovchilarning turli sport yo'nalishlari bo'yicha nazariy olingan bilim va ko'nikmalari yanada mustahkamlandi.

Malaka oshirish kurslari doirasida harbiy xizmatchilar "Olimpiya va Paralimpiya shon-shuhurasi" muzeyida bo'lib, mamlakatimiz faxriga aylangan sportchilarimizning erishgan yutuqlaridan so'zlovchi eksponatlar bilan yaqindan tanishdi.

Tahsil yakunida tashkil etilgan tantanali tadbirda so'z olganlar bugun mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor, xususan olis chegaraoldi hududlarida jismoniy

tayyorgarlik sifatini yanada oshirish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.

Bittiruvchilarga shu yo'ldagi faoliyatlarida omad tilab, harbiy sportchilarining murabbiylilik faoliyati bilan shug'ullanishlariga asos bo'lvchi malaka sertifikatlari tantanali tarzda topshirildi. O'z navbatida, institut jamoasi ham Chegara qo'shinlarining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

- Ilk bora tashkil etilgan mazkur o'quv kursi harbiy xizmatchilarimiz uchun juda foydali bo'ldi. Endilikda ular o'zlarini xizmat qilayotgan tuman (shahar) markazlaridan uzoqda joylashgan, bugungi kunda yoshlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun markazlashgan joylarga qaraganda

yetarli sharoitlar mavjud bo'lмаган hududlarda beg'araz tarzda harbiy sport to'garaklarini tashkil etib, o'zlarini murabbiylilik faoliyati bilan shug'ullanishlari ko'zda tutilgan. Institut jamoasi bilan esa barkamol avlod tarbiyasi yo'lidagi bunday amaliy hamkorligimiz davom etib, birqalikda yana ko'plab loyihalarni amalga oshirishimizga ishonamiz, - deydi podpolkovnik Elbek Sharipov.

Albatta, bu kabi amaliy tadbirlar sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor namunasi bo'libgina qolmay, o'sib kelayotgan yosh sportchilar kelajagini munosib murabbiylar qo'liga topshirishida ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

O'q otish sport turi

# YAXSHI SHAROIT YUQORI NATIJA GAROVI

So'nggi yillarda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi musobaqalarning muntazam o'tkazilishi quvonarli hol. Yoshlar o'rtasida bo'lib o'tayotgan ushbu bellashuvda eng yoqimli, quroldan o'q otish bahslari, desam, mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, nishonni aniq mo'ljalga olayotgan yoshlar orasida qizlarning salmoqli hissasini e'tirof etmaslikning imkonini yo'q.

Afsuski, otish bahslarida yuqori natijani qayd etgan jamoa a'zolarining keyingi faoliyatida ushbu sport turi unchalik ham ahamiyat kasb etmayotgandi. Ular o'zlarini uchun xobbi sifatida istirohat bog'larida joylashgan "tir"larda o'zaro bellashishdan nariga o'tolmayotgan edi. Buni qarangki, xobbi sifatida qaralgan ushbu sport turi bo'yicha bir kun kelib, oliy ta'lim muassasasida professional mutaxassislar tayyorlanishi mumkinligini kim ham o'yabdi deysiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorda 2025/2026-o'quv yiliidan boshlab, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida "Sport faoliyati: o'q otish va stenddan o'q otish" bakalavriat ta'lim yo'nalishimi ochish belgilab qo'yildi. Qaror ijrosi natijasi o'laroq, yana to'rt yildan so'ng o'q otish bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislarining tajribalaridan keng foydalanish imkoniyati tug'iladigan bo'ldi. Shuning o'ziyoq bu sohada keng ko'lamli islohotlar olib borilayotganidan dalolat.

Qolaversa, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi o'q otish bazasi o'quv-mashg'ulotlari hamda sport musobaqalarini o'tkazish bo'yicha O'zbekiston o'q otish sporti federatsiyasining asosiy sport bazasi hisoblanishi ham ushbu qarorda o'z ifodasini topgan.

O'q otish, stenddan o'q otish va parao'q otish sport turlarini yanada ommalashtirish maqsadida Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sport bazasida qo'shimcha 10 m, 25 m va 50 m masofaga o'q otish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni muntazam olib borish uchun sharoitlar yaratildi.

– Bugun biz o'z mashg'ulotlarimizni yaqinda qurib bitkazilgan shinam va qulayliklarga ega 50 metrغا mo'ljallangan o'q otish maydonchasida davom ettirmoqdamiz, – deydi murabbiy Sakina Mamidova. – To'g'ri, oldingi imkoniyatlar ham yomon bo'lgan deyolmayman, ammo yaxshi sharoit yuqori natija garovi bo'lishini inobatga olsak, yosh sportchilarning xalqaro musobaqalardagi reytingiga ham ijobji

ta'sir qilishi tabiiy. Eng asosiysi, o'q otish sport turiga bo'lgan e'tiborning kuchaygani murabbiy sifatida meni quvontiradi. Qo'l ostimda mashg'ulot o'tkazayotgan shogirdlarimga yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda nufuzli musobaqalarda birinchilikni qo'lga kiritish uchun tinimsiz mehnat qilish kerakligini ta'kidlayman. Bizga imkoniyat va sharoit yaratildimi, demak, biz uni oqlashimiz kerakligini uqtiraman.

Shinam va eng asosiysi, xavfsizlik qoidalariqa qat'iy roya qilingan holda qurilgan ushbu inshootda havaskor va

professional sportchi yoshlar murabbiy nazorati ostida shug'ullanmoqda. Harbiy xizmatchilar ham PM 3 o'q otish qurolidan 25 metr masofadagi nishonni aniq mo'ljalga olish mashg'ulotlarini olib borishayotgan ekan.

– O'pkamizni to'ldirib turgan nafasni to'g'ri ushlay bilishda gap ko'p. To'g'ri, nafas olish, yurakning bir maromda urishini ta'minlaydi, – deydi kapitan Quvonchbek Berdixanov. – Yurak ritmining me'yorda bo'lishi qo'lning qaltiramasligiga zamin bo'ladi. Qolaversa, nishonga qaratilgan qurolni his qilish ham juda ahamiyatlidir. Qo'limizda ushlab turgan quronga mehr berish kerak. Agar mehr berilsa, mo'ljalga olish osonlashadi. Ushbu sport turiga qiziqqanim tufayli mutaxassis murabbiylar ko'magida yuqori natijalarini zabt etib kelmoqdaman. 2024-yili Toshkent shahrida o'tkazilgan MDH harbiy xizmatchilari o'rtasida bo'lib o'tgan musobaqada PM 3 o'q otish qurolidan 25 metr masofaga nishonni aniq mo'ljalga olib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritgan edim. Musobaqa shartiga ko'ra, 30 ta o'q bilan nishonni mo'ljalga olishga ruxsat etilgan. O'sha musobaqada

290 ochko jamg'arib, rekord natijani o'rnatgandim. Kelgusida bo'ladijan xalqaro musobaqalarda ishtirot etib, o'z rekordimni yangilamoqchiman.




Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi o'q otish bazasida olib borilayotgan o'zgarishlar bilan tanishish asnosida pnevmatik miltiq (Feinwerkbau)dan foydalanih ko'rishni juda xohladim. Murabbiy nazorati va ko'rsatmasi ostida nishonni mo'ljalga olarkanman, vujudimda sokinlikni his qildim. Qurol, men va 50 metrdagi nishon. Ajratilgan 3 dona o'qdan oxirisigina nishonga yaqinlashdi. Shunda tushunib yetdimki, qalb qanchalik sokin bo'lsa, o'q nishonga shunchalik yaqin borarkan.

Manzildan qaytish chog'ida qo'lida qurol bilan bitta ko'zini yutmangacha qimirlamay, nishonga termilib turgan sportchilarga qararkanman, yaxshi sharoit yuqori natija garovi bo'lishiga umid bog'ladim. Ajabmas, kun kelib, mana shu yoshlar orasidan Olimpiada championlari yetishib chiqsa...

**Sherzod SHARIPOV,  
"Vatanparvar"**

# MA'NAVIYAT STRATEGIYASI

Bugun dunyoda kechayotgan murakkab globallashuv jarayoni tufayli ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'siri tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, missionerlikka yo'naltirilgan harakatlar nafaqat insonlarning e'tiqodiga, balki turli din, millat va elatlarning hamjihatligiga raxna solayotgani hamda siyosiy ta'sir doirasiga tortish vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo'lmaydi. Avval ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik mafkuraviy tashviqotning nozik va nisbatan arzon shaklida ayrim davlatlar amaliyotiga aylanib ulgurdi.



**MA'NAVIY TA'SIR** ko'rsatishning birinchi darajaga chiqishini har bir mamlakatda e'tiqod masalasida o'ziga xos yozilgan yoki yozilmagan qonunlar, qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar borligi bilan belgilash mumkin. Ma'naviyatni shakllantiruvchi va boshqaruvchi ushbu omillarsiz muayyan insoniy birlikni biror siyosiy maqsad yoki g'oyaga xizmat qildirish majburlashni keltirib chiqaradi. Majburlash esa kuch ishlashish va zo'rlik vositalarini talab qiladiki, inson ongi va qalbini egallash, uni belgilangan g'oyalar va siyosatga bo'ysunuvchi odamga aylantirishda muvaffaqiyatli chora bo'la olmaydi. Chunki majburlash ma'naviyatga zid hodisa hisoblanadi. Qolaversa, globallashuv jarayoni missionerlik harakati uchun keng imkoniyat yaratadi.

Jahonda keskin g'oyaviy kurashlarning avj olishi, turli mafkuralar to'qnashushi, demokratiya yoki diniy ta'lilotlar shiorlari bilan "chiroyli" niqbolangan g'oyalarni singdirishga intilish missionerlik harakatlari misolda tobora kuchayib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Ba'zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo'yish holatlari kuchaymoqda. Diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo'immoqda". Mazkur harakatlar milliy, diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarish, tinch va osuda hayotga tahdid solish, nafaqat jamiyatda, balki mamlakat miqyosida separatizmga yetaklamoqda.

Missionerlar ilgari ko'proq shifokor, o'qituvchi ko'rinishida yuborilgan bo'lsa, texnik taraqqiyot globallashuvi kuchaygan bugungi zamonda boshqa kasb turlari, sayyoh, sportchi, investor, biznesmen, xalqaro tashkilotlar xizmatchisi, savdo xodimi, hatto elchi sifatida yuborilish, "xizmat vazifasi"ni o'tash maqsadida muayyan hududlarga maxsus torshiriq, vazifalarni bajarishga yo'naltirilmoqda.

**DUNYO MIQYOSIDA** missionerlik aksariyat holatlarda diniy nifoq solish orqali dinlararo to'qnashuvlar, etnokonfessional ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Keyingi vaqtarda missionerlar keng e'tibor qaratayotgan tarmoqlar ichida muhtoj oilalar, maktab internati, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, mehribonlik va qariyalar uylari, nogironlar, o'rta maxsus hamda olyi ta'lim muassasalari va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero ijtimoiy missiya strategiyasida zohiran "beg'araz" yordam ko'rsatish orqali fuqarolarning jamiyatda o'z o'mini topishi, oilaviy muammolarni bartaraf etishi, insonlarga tinchlik va quvonch ulashish masalalari qamrab olinadi.

Missionerlikning asosiy elementlaridan biri muayyan ijtimoiy guruhlarni aniqlash va ular bilan ishslashdir. Rivojlangan davlatlar missionerlik tashkilotlari orqali xorijiy davlatlardagi ichki "iqtisodiy muammolar"ni bartaraf etishda bevosita ishtirot etadi. Bunda missionerlar moddiy va moliyaviy yordam ko'rsatishning

turli usullaridan ustalik bilan foydalanmoqda. Ushbu rejalarini amalga oshirishda "Mehribonlik uylari", "Ko'zi ojizlar jamiyati", "Qariyalar uyi"ga "beg'araz" xayıriya yordami ko'rsatishi ular amaliyotining oshkorra ko'rinishlaridir. Bunday missionerlik amaliyoti rasman ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa-da, u ko'plab konfessiyalarda amalga oshirilib, tashkilot muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Missionerlik strategiyasining eng muhim vazifasi muayyan davlat hududida ushbu faoliyatning asosiy yo'nalishlari, ya'ni missiyasini topishdan iborat. Xorijiy moddiy ko'mak asosida moliyalashtirilayotgan missionerlik strategiyasida aksariyat holatlarda siyosiy maqsadlarni ko'zlab harakat qilayotgani yaqqol namoyon bo'immoqda. Ziddiyatlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib kelayotgan turli siyosiy-mafkuraviy guruhlar etnik-milliy, diniy asosda yangi ziddiyatlarni ongli ravishda avjiga chiqarmoqda.

Natijada mazkur holat muayyan mintaqalarda avvalo, jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligiga putur yetishi uchun zamin yaratmoqda. Aynan missionerlikni rivojlantirish maqsadida xorijdan yo'naltirilayotgan "beg'araz" moliyaviy yordamdan o'z manfaati va maqsadi sari intilishi tobora oydinlashmoqda. Vaholanki, dunyo miqyosida geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora o'zgarishi ayrim rivojlangan davlatlarning o'z demokratiyasini "eksport" qilish orqali dunyoga hukmronlik uchun da'vogarlik harakatlarida namoyon bo'immoqda.

**MISSIONERLIK HARAKATI** natijasida "inson huquqlari", "vijdon erkinligi", "demokratik erkinliklar"ni olg'a surish uchun ko'rsatilayotgan "ko'mak" aslida mamlakatni parokandalik sari siyosiy boshboshoqlikka yetaklamoqda. Erkinlik, demokratiya kabi jozibali g'oyalarni niqob qilib olgan bu siyosiy kuchlar shu asosida dunyodagi xohlagan mustaqil davlatning ichki ishlariga aralashib, g'arazli maqsadlarga erishmoqchi bo'ladi. Vaholanki, missionerlik orqali amalga oshirilayotgan "demokratiya" niqobidagi urinishlar mana shunday noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini anglash barchadan jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, missionerlik tashkiloti a'zolari bu yerga o'z qarindoshi, tanishi, do'stalarini jaib etadi. Jamiyatga ko'proq a'zolarni olib kelganlar maxsus imtiyozlarga ega bo'ladi. Jamiyatning asosiy maqsadi odamlarga "haqiqiy hayotni topishga yordam berish", boshqacha qilib aytganda, bu gunohkor dunyoga Xudo qanday qilib abadiy hayotni saqlab qolishi va qo'lga kiritishi haqida xabar berishdir. A'zolar o'zini ko'proq "yangi hayot" izdoshlari deb biladi.

Urushlar, ocharchilik, kasalliklarning avj olishi missionerlik tashkilotlarining faolligini oshiradi. Chunki bunday holat ular uchun qulay sharoit yaratadi. Ayrim davrlarda sun'iy ravishda yaratilgan urush, kasalliklarning sababi ayni mafkuralarni targ'ib qilish uchun tashkil etilgan. Asosan, bir najotkor kelib, bizni

bu qiyinchiliklardan qutqaradi, degan ishonchdan foydalanib, soxta mahdiylik, soxta nasroniylik, soxta payg'ambarlik da'volarini vujudga keltirish orqali soxta dinlar, botil e'tiqodlar yaratadilar. Oqibatda odamlarning moddiy va ma'naviy qiyinchiliklardan foydalanib, ularni o'z yo'liga da'vat qiladi. Bu tashkilotlar atayin nizolarni uyushtiradigan yirik muassasa va kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadi yoki qo'llab-quvvatlanadi.

Missionerlar mahalliy aholiga o'z madaniyatidan "yuqori" madaniyatni taklif etadi. Tadqiqotchilar missionerlik faoliyatining 4 asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadi: ular tashkiliy, geografik, hududiy va uslubiy deb ataladi. Umumiy missionerlik yuzasidan internet makonida, masalan, Instagram, TikTok, VK, YouTube, Telegram, Facebook tarmoqlarida dinning tarqalishi ustida ish olib borilmoqda. Missioner ikki yoki uch soniya davomida odamning qiziqishini oshiradi va boshqa video yoki yozuvlarni o'qishga ishtiyoqini uyg'otadi va insonning ma'lum bir dinga munosabatini o'zgartirish yoki e'tiqodga kirish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan "strategik tadqiqotlar" natijasiga ko'ra, missionerlik dunyoda turli konfliktda va qat'iy geosiyosiy bosimda ekani ta'kidlanadi. Missionerlik ta'siri ostida har qanday xalq va millatning madaniy ildiziga tahdid solish orqali o'ta radikal millatchilik harakatlari vujudga keladi. Natijada global miqyosda etnik va millatlararo mojarolarning tobora avj olishi har qanday xalq va millatni mentalitetiga raxna solish orqali ma'naviy tubanlik girdobiga yetakladyi.

**BUGUNGİ KUNDA** inson ongi, qalbi va ruhiyatiga tazyiq o'tkazishga harakat qilayotgan missionerlik tarafdarlari eng ta'sirchan vositalar sifatida axborot missiyasini amalga oshirishda gazeta va jurnallar, internet tizimidan samarolni foydalanmoqda. Ayni payt internet saytlaridan tarqatilayotgan milliy ma'naviyatimizga yet g'oyalari va axborot xurujlarini yoshlar tomonidan qabul qilayotgani va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlar xalqlarini tashvishga solmoqda. Ushbu o'zgarishlar girdobida inson, insoniylik, ma'naviyat kabi tuchunchalarning buguni va kelajagi ko'p jihatdan mafkuraviy immunitetini shakllantirish va kuchaytirish muammosini qay darajada hal etilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Albatta, missionerlarning da'vati pinhona bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur harakatlarga nisbatan har qanday e'tiborsizlik bizga qimmatga tushishini unutmaslik lozim. Zero missionerlarning bunday g'arazli maqsadlariga nisbatan muntazam ogoh, sezgir va hushyor bo'lish bugungi kunning dolzarb talabidir.

**Mansur MUSAYEV,**  
**Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi**  
**huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar**  
**instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori**

“Vatanparvar” tavsiyası

# Rangli ADABIYOT

Adabiyotda ranglar – faqat tashqi tasvir emas, balki ichki ruhiy holat, estetik tuyg'u va ijtimoiy-falsafiy mazmunni ifodalovchi kuchli timsollar. “Qora”, “oq”, “yashil” kabi ranglar ko'plab mashhur asarlarning nomida bo'lishi bejiz emas: ular insoniyat tarixida doimo ziddiyat, poklik, yasharish, sir-sinoat va saboq timsollari sifatida ma'no tashib kelgan.

Baxtiyor Habibullayev sahifasida e'lon qilingan va turli ranglar bilan bog'liq mashhur adabiy asarlar jamlanmasi diqqatimni tordi. Ushbu noyob ro'yxatni yanada umumlashtirib, “Vatanparvar” gazetasi o'quvchilari uchun taqdim etmoqdamiz. Har bir asarda bir dunyo ma'no, bir olam falsafa mujassam.

## QORA RANG BILAN BOG'LIQ MASHHUR ASARLAR:

- “Qora oqqush”, Nassim Taleb;
- “Qora monax”, Anton Chexov;
- “Qora quyosh”, Muhammad Yusuf;
- “Qora lola”, Aleksandr Dyuma;
- “Qora kamar”, Shukur Xolmirzayev;
- “Qora ko'zlar”, Pirimqul Qodirov;
- “Qorako'z Majnun”, Said Ahmad;
- “Qora kitob”, Nazar Eshonqul;
- “Qizil va qora”, Stendal;
- “Quyosh qoraymas”, Oybek;
- “Qora musiqa”, Uilyam Folkner;
- “Qora haykal”, Erix Mariya Remark;
- “Qora o'q”, Luis Stivenson;
- “Qora pul imperiyasi”, Jorj Armstrong;
- “Qora odam”, Sergey Yesenin;
- “Qora suyaklar”, Sherbek Bobonor o'g'li;
- “Qora ko'zlar”, Mixail Lermontov;
- “Qora beva”, G'ulom Jo'ra;
- “Qora tol”, Ibroyim Yusupov;
- “Qop-qora yuvosh odam”, Josef Kipling;
- “Qora Piter”, Artur Konan Doyl;
- “Qora quzg'un”, Fozil Tilovatov;
- “Qoracha”, Jef Teodor Drayzer;
- “Qora kiyik”, Bahodir Abdurazzoq;
- “Qoralar falsafasi”, Anbar otin.



## YASHIL RANG BILAN BOG'LIQ MASHHUR ASARLAR:

- “Yashil milya”, Stiven King;
- “Afrikaning yashil tepaliklari” (1935), Ernest Xeminguey;
- “Yashil chiroqlar” (2020), Mettyu Makkonaxi, avtobiografiya;
- “Yashil kecha” (1928), Rashod Nuri Guntekin;
- “Yashil Niva” (1987), Shukur Xolmirzayev;
- “Yashil lampa” (1930), Aleksandr Grin;
- “Yashil mezzaninli Anya” (1908), Lyusi Mod Montgomeri;
- “Polustanok kafesida qovurilgan yashil pomidorlar” (1987), Fenni Flegg;
- “Yashil odam” (1995), Kingsli Emis;
- “Yashil”, Halima Ahmedova;
- “Olam yam-yashil”, Erkin A'zam;
- “Yashil kitob”, Muamar Kaddafi;
- “Yashil qishloq”, Mirmuhsin;
- “Yashil qo'l”, Anton Chexov;
- “Yashil soyalar, Oq kit” (1992), Rey Bredberi.



## OQ RANG BILAN BOG'LIQ MASHHUR ASARLAR:

- “Oq tunlar” (1848), Fyodor Dostoyevskiy;
- “Mobi Dik yoki Oq Kit” (1851), German Melvill;
- “Oq so'yloq” (1906), Jek London;
- “Oq nilufarlar yurtida” (1923), Grigoriy Petrov;
- “Oq gvardiya” (1925), Mixail Bulgakov;
- “Oq kaptar” (1941), Lev Brandt;
- “Oq marmar” (1957), Mirmuhsin;
- “Oqcharloq Jonatan Livingston” (1970), Richard Bax;
- “Oq kema” (1970), Chingiz Aytmatov;
- “Oq Bim Qora qulog” (1971), Gavriil Treopolskiy;
- “Oq bayroqlar” (1973), Nodar Dumbadze;
- “Oq qushlar, oppoq qushlar” (1988), Odil Yoqubov;
- “Chingizxonning oq buluti” (1990), Chingiz Aytmatov;
- “Oq marmar, Qora marmar” (“Dunyoning ishlari” asaridan), O'tkir Xoshimov;
- “Oq bulut, oppoq bulut”, O'tkir Xoshimov;
- “Oq kaptarlar”, Nurali Qobul;
- “Oq yuz”, Umar Sayfiddin;
- “Oq kiyingan ayol”, Vilki Kollinz;
- “Bekatda oq uycha”, Normurod Norqobilov;
- “Oq qorlar, onam va koinot”, Javlon Jovliyev.



B. ELMURODOV tayyorladi.

E'tirof



## Ilmga muhabbat onadan bosqhanadi

Ba'zan hayotdagji voqealar shunday ta'sirli bo'ladiki, qalbingizning eng nozik torlariga tegadi, sizni o'ylashga, his qilishga, hatto qalam olib yozishga majbur etadi. Quyidagi satrlar ham aynan shunday tuyg'udan tug'ildi.

Gap Qarshi shahridagi harbiy shaharchada istiqomat qiluvchi qo'shni ayol haqida ketmoqda. Nega aynan u haqda yozayotganimning boisi u shunchaki qo'shni emas – u vujudida buyuk onalik, so'zsiz sadoqat va bilingma muhabbat mujassam bo'lgan ayol. Bir avlodning, bir millatning faxri bo'la oladigan ona.

Yaqinda uning 14 yoshli qizalog'i IELTS imtihonidan 8 ball natija olyagini eshitdim. Bu xabar nafaqat menga, balki butun mahallaga, yurtdagi har bir qizaloqqa ilhom baxsh etdi. Ilmga ishongan, buyuk kelajakni orzu qilgan va shu yo'lda dadil qadam tashlayotgan yosh qalb. Uning buyuk maqsad yo'lida erishgan bu natijasi bilim, mehnat va sadoqat bilan yozilgan dastlabki zafarnomadir. Bu zafar ortida esa bir buyuk inson – ona turadi. Uning ismi Odinaxon.

Odinaxon 34 yoshda. Uch farzandning mehribon onasi, bir harbiyning umr yo'ldoshi. U farzandlarini ilmga mehr qo'ydirib voyaga yetkazmoqda, adabni, hayotni yaxshi ko'rishni o'rgatmoqda. To'ng'ich qizining yutug'i bu oiladagi muhit va tarbiyaning yorqin samarasidir. Haqli ravishda aytish mumkin: yaxshi farzand – namunali oilaning yuzi.

Odinaxon o'rta maxsus ta'limi tamomlagandan so'ng turmush qurban. Bilamizki, harbiyning rafiqasi bo'lish faqat muhabbat emas, balki sabr, vafo va bag'rikenglik talab etadigan mas'uliyatdir. Odinaxon turmush qurban ilk davrlardanoq bu mas'uliyatni dildan his qildi. Turmush o'rtog'iga doim yelkadosh bo'lishga intildi. Birin-ketin farzandlari voyaga yetganda esa ularning ilm yo'lidiagi har bir qadamini muhabbat bilan qo'llab-quvvatladi. Farzandi yig'lasa, ko'nglini ko'tardi. Tushkun bo'lsa, orzu qilishga o'rgatdi. Bekor qolsa, qo'liga kitob tutqazdi. Asli bu harakat zamirida ona yuragidagi beqiyos muhabbat va fidoyilik mujassam.

Darvoqe, ilmga muhabbati cheksiz bu ayol bugun psixologiya yo'nalişida tahsil olayotgan talaba.


– Yoshim o'ttizdan oshgandan keyin o'qishga kirdim. Hozir oilaviy o'quvchilarimiz, – deydi Odinaxon kulib. (Lekin bu so'zlarda nafaqat hazil, balki hayotga ishonch, kelajakka sadoqat, farzandlariga namuna bo'lish orzusi bor). – Albatta, mening ilmli bo'lish orzumming ro'yobga chiqishida, farzandlarimning erishayotgan yutug'ida turmush o'rtog'imning xizmati, hissasi beqiyos. Shuning uchun ulardan minnatdorman.

Shu on ayolning nurli chehrasiga tikilaman. Uning ko'zlaridagi samimiy shukronalik, qalbida esa baxtli ayolga xos xotirjamlikni his qilib, qalbimda unga nisbatan havasim ortadi. Axir Odinaxon singari onalarning jasorati yurtning ruhiy boyligi, ma'naviy poydevori sanaladi.

Ha, ona bo'lish faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki uni ulg'aytirish, kamolga yetkazish, ularning qalbiga ilm, mehr va yurtga muhabbatni jo qilish demak. Odinaxon farzandlari oldidagi bu vazifani sharaf bilan ado etayotgan qahramon ona. Muhimi, mana shunday bilimli, keng dunyoqarashli, fidokor onalar millatning iftixoriga aylanmoqda. Ular nafaqat o'z oilasiga, balki butun jamiyatga foyda keltiryapti, kelajak avlodga ma'rifat va qadriyat ulashyapti.

Zero ularning mehrida tarbiya, sabrida ziyo, qalbida esa Vatanga sadoqat yashamoqda. Shuning uchun ham Odinaxon kabi ayollar haqida yozish yosh avlod uchun ibrat, jamiyat uchun e'tirof, kelajak uchun esa ruhlanish manbaidir.

Shohista ABDURAHMONOVA



# MENINGIT – XAVFLI, LEKIN BEDAVO EMAS!

Meningit – bu bosh miya va orqa miya pardalarining yallig'lanishi bo'lib, virus, bakteriya, zamburug' yoki parazitlar tomonidan chaqirilishi mumkin. Eng xavfli turlari bakterial meningit bo'lib, u tezkor tibbiy yordam talab qiladi va barcha qatlamdagi insonlar uchun xavfli hisoblanadi.


Meningit kasalligi boshqa ko'plab yuqumli kasalliklarga qaraganda ancha xavfli sanaladi. Bunga bir nechta asosiy sabablar bor.

**Insonning asab tizimiga ta'siri:** bosh miya va orqa miya pardalarining yallig'lanishi hisobiga asab tizimiga to'g'ridan to'g'ri zarar yetkazadi. Bu esa miya shishi, tutqanoq (*sudorgi*), eshitish qobiliyatining yo'qolishi, miya faoliyatining susayishi, doimiy nogironlik kabi asoratlarga olib kelishi mumkin.

**Tez rivojlanadi:** bakterial meningit, ayniqsa xavfli bo'lib, bir necha soat ichida hayot uchun xavfli holatga olib kelishi mumkin. Davolash kechiksa, o'lim xavfli oshadi.

**O'lum ko'rsatkichi yuqori:** ba'zi shakllari (*masalan, Neisseria meningitidis*) o'limga olib kelishi mumkin. Statistikaga ko'ra, bakterial meningit bilan kasallanganlarning 10-15 foizi davolashga qaramay vafot etadi. Qolganlarining esa 20-30 foizida doimiy nevrologik asoratlar qoladi.

## KASALLIK BELGILARI:



**Yosh bolalar va immuniteti kuchsiz yoki surunkali kasalligi bor odamlarda tez-tez uchraydi:** bu guruhdagi odamlarda organizm qarshilik ko'rsata olmaydi, shuning uchun kasallik yanada og'ir kechadi.

### YUQISH YO'LLARI

**Havo-tomchi yo'li:** eng keng tarqalgan yo'l. Kasal odam yo'talganda, aksirganda yoki gapirganda havo orqali so'lak va burun tomchilari bilan tarqaladi. Ayniqsa, virusli va bakterial meningit shunday yuqadi.

**To'g'ridan to'g'ri muloqot yo'li:** kasallangan odamning burun yoki tomoq shilliq qavati bilan yaqin muloqotda bo'lish (*o'pish, bir idishda ovqatlanish, tamaki ularish, bolalarda o'yinchoqlarni og'ziga solish*). Bu yo'l bilan bakterial meningit yuqishi mumkin.

**Ichak-og'iz yo'li:** ayrim virusli meningit (*masalan, enteroviruslar*) najas orqali ifloslangan qo'l, suv yoki ovqat orqali yuqadi. Ko'pincha gigiyena qoidalariqa amal qilinmasa, bolalar bog'chalarida, oromgohlarda tez tarqaladi.

**Qon orgali (gematogen yo'l):** infeksiya avval boshqa joyda bo'lib, keyin qon orqali miya pardalariga yetib boradi. Masalan, o'pkadagi pnevmoniya yoki quloqdagi yallig'lanishdan keyin.

Ommaviy joylarda maktab, harbiy qismlar, yotoqxonalar yoki boshqa yig'inlarda yuqish xavfi ortadi. Meningit kasalligi yil davomida uchrashi mumkin, lekin ba'zi fasllarda va sharoitlarda u ko'proq avj oladi. Yuqumli (ayniqsa, virusli va bakterial) meningitlar uchun bu juda muhim.

### MENINGIT QACHON AVJ OLADI?

Bahor va yoz oylarida (*aprel–avgust*) – virusli meningit yozda ko'p uchraydi. Sababi keltirib chiqaruvchi enteroviruslar issiq va nam ob-havoda faolroq bo'ladi. Suv orqali tarqalishi mumkin (*masalan, ifloslangan basseynlar, ariq suvlari*).

Qish va erta bahor (*dekabr–mart*) – bakterial meningit, ayniqsa meningokokk va pnevmokokk infeksiyalari sovuq fasllarda ko'proq uchraydi. Sovuqda odamlarning yopiq joylarda ko'p bo'lishi, immunitetning pasayishi va respirator kasalliklarning ko'payishi bunga sabab bo'ladi.

Ko'p odam yig'iladigan joylarda (*yilning istalgan vaqt*) – bolalar

bog'chalari, maktablar, yotoqxonalar, harbiy qismlar.

**Kasallik belgilari:** qattiq bosh og'rig'i, bo'yin qattiqligi, yuqori isitma, ko'ngil aynishi, qayt qilish, hushdan ketish, fotofobiya (*yorug'likdan qo'rqiш*).

Yuqoridagi belgililar kuzatilsa, o'zboshimchalik bilan dori vositalarini iste'mol qilmasdan, kechiktirmagan holda shifokorga murojaat qilish lozim.

### MENINGIT PROFILAKTIKASI

**Emlash** – eng samarali profilaktika usuli. Vaksinalar odatda, bolalik davrida, lekin xavf ostidagi kattalarga ham tavsiya etiladi.

**Shaxsiy gigiyena qoidalariqa amal qilish** – qo'llarni tez-tez sovnlab yuvish (ayniqsa, ovqatdan oldin va hojatxonadan keyin), yuz, burun, ko'zga qo'l tekizmaslik. Salfetka yoki tirsakka yo'talish, aksirish, o'ziga tegishli narsalarni (*stakan, sochiq*) boshqalar bilan baham ko'rmaslik.

**Sog'lom turmush tarzini olib borish** – to'g'ri ovqatlanish (*meva, sabzavot, oqsilga boy taomlar*), yetarlicha uyqu (*me'yorda 7-8 soat*), jismoniy faoliylik, stressni kamaytirish. Immunitetni mustahkamlash.

**Xonalarni tez-tez shamollatish va tozalikka rioya qilish** – yopiq joylarda havoni mutanzam almashtirish zarur. Ko'pchilik yig'iladigan joylarda gigiyenik choralarни kuchaytirish kerak.

**Kasallangan odamlar bilan muloqotni cheklash** – meningit va boshqa yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlar bilan bevosita muloqotdan saqlanish lozim.

**Safar oldidan ehtiyyot choralarini ko'rish** – meningit xavfi yuqori bo'lgan mamlakatlarga (*masalan, Afrika davlatlari*) safar qilishdan oldin, kasallikka qarshi vaksina olish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, meningit juda xavfli yuqumli kasallik, ayniqsa bakterial turi. U tezda kechadi, asoratlari og'ir, o'lim xavfi yuqori. Shuning uchun bu kasallikni erta aniqlash va darhol davolash muhim.

**Tibbiy xizmat mayori E. BEKKAMOV, tibbiy xizmat katta leytenant F. NIYOZOV, Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi mutaxassislari**

Dolzarb 90 kun

# “QALQON”DA YOZ O’TMOQDA SOZ

2025-yil 15-may kuni Prezidentimiz rahbarligida maktab ta’limi tizimidagi islohotlarga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishi bo’lib o’tdi. Unda ta’limning barcha bosqichlariga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, yoshlar tarbiyasi va ularning salohiyatini ro’yobga chiqarish bo’yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Yig’ilishda davlat rahbari tomonidan yoshlar bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan “Dolzarb 90 kun” dasturi e’lon qilindi. Ushbu dastur yoshlarda ijtimoiy faoliyotni oshirish, ularning bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish, ma’naviy saviyasi niyuksatlirishga xizmat qiladi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 339-umumta’lim maktabida “Qalqon” kunduzgi oromgohi tashkil etildi. Yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy, jismoniy va intellektual rivojiga xizmat qilayotgan oromgohda mavsum davomida bolalar uchun turli yo’nalishlarda to’garaklar tashkil etildi. Jumladan, “Qalam sehri”, “Mutolaa”, “Yosh dasturchi”, “Mehnat va dizayn”, “Sport”, “IT” va “Pazandachilik” to’garaklari orqali o’quvchilar kitobxonlik, texnologiya, mehnat madaniyati va ijodiy ko’nikmalarini egallamoqda.

Oromgohda o’tkazilgan “Quvnoq startlar” sport musobaqasi bolalarda jamoaviylik va jismoniy faoliyotni mustahkamlagan bo’lsa, “Qalbim quyoshi – Vatan!” badiiy tadbiri ularning qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va milliy ruhni yuksaltirdi.

Mazkur tadbirda parallel ravishda IT, robototexnika, grafik dizayn va internet xavfsizligiga oid mashg’ulotlar o’tkazildi. Bu esa bolalarda raqamli ko’nikmalarini shakllantirdi. Darslar davomida raqamli savodxonlik va axborot texnologiyalarining kundalik hayotdagi o’rni haqida muhokamalar ham bo’lib o’tdi.

“Tikuvchilik va dizayn” to’garagida esa qizlar dastlab mehnat xavfsizligi qoidalari, tikuv mashinasida ishlash ko’nikmalari bilan tanishgan bo’lsa, amaliy darslarda chizma bilan ishslash, to’g’ri o’lcham olish, choydar va dasturxon tikish, kiyim modellashtirish sir-asrorlaridan boxabar bo’ldilar.

Tadbirlar doirasida bolalarni yo’l harakati qoidalari bilan tanishtrish maqsadida YHXB inspektori ishtirotida targ’ibot suhbatni ham tashkil etildi. Suhbat davomida yo’l harakati qoidalari amal qilishning ahamiyati hayotiy misollar bilan



tushuntirib berildi. Shuningdek, bolalarning yo’l belgilarinini qay darajada bilishini sinovdan o’tkazish maqsadida savol-javob o’tkazildi.

Xulosa qilib aytganda, “Qalqon” kunduzgi oromgohi shunchaki dam olish maskani emas, balki o’quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy fikrlashi va ma’naviy dunyoqarashini rivojlantiruvchi samarali tarbiya maktabidir.

Zero bu yerda tashkil etilayotgan har bir to’garak, olib borilayotgan har bir mashg’ulot, o’tkazilayotgan

har bir tadbir bolalarning qalbiga ezgulik urug’ini ekmoqda, yuragiga Vatanga muhabbat, milliy iftixor, jamoaviylik va mehnatga bo’lgan hurmat tuyg’usini singdirmoqda. Yuragi ezgulikka oshufta bo’lib ulg’aygan o’g’il-qizlar esa millatning munosib vakkillari bo’ladi.

**Marg’uba SAMADOVA,  
Yashnobod tumanidagi 339-umumta’lim  
maktabi direktori o’rinbosari**

## Hay’at yig’ilishi

# VAZIFALAR belgilandi

O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Bosh prokuror o’rinbosari – O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev raisligida navbatdagagi hay’at yig’ilishi bo’lib o’tdi.

Videokonferens-aloqa tarzida o’tgan muloqotda mahkama va hududiy harbiy prokuraturalarning barcha xodimlari ishtirot etdi. Unda harbiy prokuratura organlari tomonidan joriy yilning o’tgan davrida yangi tahrirdagi Konstitutsiya, boshqa qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ko’rib chiqildi.

Shuningdek, qo’shinlarda qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining ijtimoiy himoyasi, huquqburzaliklarning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash, energetika, ekologiya xavfsizligi, byudjet mablag’lari iqtisodi borasidagi va faoliyatga doir boshqa masalalar sarhisob qilindi.

Yakunda tegishli qaror qabul qilinib, kelgusi vazifalar belgilab olindi.

**Adliya mayori Mahmudjon ARTIKOV,  
Respublika Harbiy prokururasi  
bo’lim katta harbiy prokurori**

## Yozgi oromgochlarda



# Galdagi manzil – “KIMYOGAR”

O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokurururasida tomonidan respublikamiz bo’ylab bolalar yozgi oromgochlarda “Biz yangi O’zbekistonning vatanparvar yoshlari” loyihasi doirasida tabirlar tashkil etib kelinmoqda.

Navbatdagi manzil Bo’stonliq tumanidagi “Kimyogar” bolalar sog’lomlashtirish oromgohi bo’ldi. Unda bolalar sport o’yinlari va turli bellashuvlar doirasida o’zaro kuch sinashdi.

Tadbir yakunida g’olib va sovrindor jamoalar hamda faol qatnashchilar munosib taqdirlandi.

**Adliya podpolkovnigi  
Gulchehraxon TURSUNOVA,  
O’zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokurorining katta yordamchisi**

## Muloqot

# DOLZARB mavzu

O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokurururasida videokonferens-aloqa shaklida navbatdagagi tadbir tashkil etildi.

Unda markaziy studiyadan mahkama tarkibiy tarmoqlari hamda joylardan hududiy harbiy prokurorlar va prokuror-tergov xodimlari ishtirot etdi.

Jumladan, ushbu muloqotda biz Jizzax harbiy prokururasi xodimlari ham onlayn tarzda qatnashdik.

Muloqotda IIIV Jamoat xavfsizligi departamenti yo’l harakati xavfsizligi xizmati katta mutaxassis Leytenant F. Mirzaboyev va Mudofaa vazirligi harbiy avtomobil nazorati boshlig’ining o’rinbosari mayor Sh. Siddikov o’z ma’ruzalarini bilan ishtirot etdi.

Mutaxassislar Prezidentimiz tomonidan kuni kecha yo’l harakati xavfsizligini ta’minalash, infratzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida qo’yilgan topshiriq va ko’rsatmalar, ulardan kelib chiqadigan kelgusi vazifalar, takomillashtiriladigan qonunchilik hujjatlari va ularning ahamiyati haqida ma’lumot berildi.

Jarayonda yo’l harakati xavfsizligiga doir videorolik namoyish etildi.

**Adliya kapitani Sherzod UNGAROV,  
Jizzax harbiy prokurorining yordamchisi**

Xorij armiyalari



# JANUBIY KOREYA

## HARBIY HAVO KUCHLARI

Janubiy Koreya Harbiy havo kuchlari mamlakat mudofaa tizimining muhim qismini tashkil qiladi.



1949-yilda tashkil etilgan Janubiy Koreya Harbiy havo kuchlarining asosiy vazifasi havo hududini himoya qilish, dushman hujumlariga qarshi kurashish va xalqaro xavfsizlik operatsiyalarida ishtirok etishdir. Koreya urushi (1950-1953-yillar) paytida mazkur mamlakat o'zining havo kuchlarini modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratdi. 1960-yildan boshlab, Harbiy havo kuchlari xalqaro aloqalarni kengaytirdi va AQSh bilan mustahkam hamkorlik o'rnatdi.

Janubiy Koreyada har bir erkak 18-35 yoshgacha bo'lganida kamida 18 oylik harbiy xizmatni o'tashi shart. Harbiy havo kuchlarida harbiy xizmat o'tash uchun tayyorgarlik va tanlov jarayoni mavjud.

Mamlakatning Harbiy havo kuchlari bir nechta asosiy vazifalarni bajaradi. Bular mamlakat havo hududini himoya qilish, urush vaqtida dushman obyektlariga havo hujumlarini amalga oshirish hamda favqulodda

vaziyatlarda insonlarni qutqarishdan iborat.

Janubiy Koreya Harbiy havo kuchlari zamonaviy jangovar samolyotlar, transport samolyotlari va vertolyotlar bilan jihozlangan. Jumladan, "F-15", "F-35", va "KF-21 Boramae" kabi zamonaviy jangovar samolyotlar bilan kuchaytirilgan. Bu samolyotlar yuqori tezlikda parvoz qilish, havo hujumlarini amalga

oshirish va radar nazoratidan qochish imkoniyatiga ega. "C-130" va "C-295" singari transport samolyotlari harbiy yuklarni tashish va maxsus operatsiyalar uchun ishlataladi.

Jangovar vertolyotlardan "AH-64 Apache" va "CH-47 Chinook" dushman obyektlarini yo'q qilish va qutqaruv operatsiyalarini o'tkazishda muhim rol o'yaydi. Janubiy Koreya o'zining yangi avlod jangovar samolyotlarini ishlab chiqarmoqda, masalan, "KX-16" va "KX-2" havo kuchlarining mustaqilligini saqlashga xizmat qiladi. Harbiy havo kuchlarida zamonaviy raketa tizimlari ham mavjud, jumladan "THAAD" (Terminal High Altitude Area Defense) tizimi ballistik raketalarni aniqlash va yo'q qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, Koreya yarimorolidagi xavfsizlikni

ta'minlaydi. "PAS-3" (Patriot Advanced Capability-3) havo hujumlariga qarshi mudofaa tizimi sifatida ishlataladi.

Janubiy Koreyaning Incheon va Gimpo aeroportlarida rivojlangan havo infratuzilmasi mavjud. Harbiy tayyorgarlik uchun maxsus havo bazalari va ta'lim markazlari esa harbiy uchuvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikma berib boradi. Janubiy Koreya Harbiy havo kuchlari xalqaro xavfsizlik operatsiyalarida faol ishtirok etadi. Ular BMTning tinchlikni saqlash missiyalari, shuningdek mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ham hamkorlik qiladi. AQSh bilan strategik hamkorlik Janubiy Koreya Harbiy havo kuchlarining qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tajriba almashinuvni, texnologik hamkorlik va qo'shma harbiy mashg'ulotlar orqali amalga oshirilmoqda.

Janubiy Koreya Harbiy havo kuchlari zamonaviy aviatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan kuchli harbiy tuzilma hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi mamlakat xavfsizligini ta'minlash va har qanday tahdidlarga qarshi turishdir. Shu bois Harbiy havo kuchlarining rivojlanishi va global hamkorlik aloqalari

Janubiy Koreya mudofaa tizimining mustahkmlanishida muhim ahamiyatga ega.

**TDSHU Xalqaro jurnalistika yo'nalishi talabasi  
Iqbol HAMZAYEVA tayyorladi.**



## Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Samarqand viloyati kengashi tasarrufidagi Bulung‘ur tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish borasida samarali ishlar olib borilmoqda.



# MAQSADIMIZ – vatanparvar yoshlarni tarbiyalash



Xudoyberdiyev. – Albatta, tadbir doirasida o'tkazilgan uchrashuv hamda suhbatlarda ona Vatanga sadoqat va muhabbat, hayotda o'z or'nini topish kabi qator mavzularda so'z yuritildi. Bunday muloqotlar yoshlарimiz hayotida muhim qadam bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shu kunlarda tuman aholisi va yoshlar o'ttasida harbiy-vatanparvarlik, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda klubda faoliyat ko'rsatayotgan sport to'garaklariga ularni jalb etish borasida yaxshi natijalarga erishilyapti.

Ayni paytda klub qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Aviamodel" kabi sekisyalarda o'ttiz nafardan ziyod iqtidorli yosh shug'ullanib kelmoqda. O'z navbatida, nufuzli musobaqalarda ishtirok etgan sportchilarimiz tumanimiz va viloyatimiz sharafini munosib himoya qilmoqda. Masalan, shu yilning 26-28-iyun kunlari Chirchiq shahrida o'tkazilgan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining respublika bosqichida ishtirok etgan tumandagi 42-umumiy ta'lim maktabining "Temuriylar" jamoasi faxrli 3-o'rinni egalladi.

Ayni paytda mazkur tuman o'quv sport-tehnika klubida "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali avyodchilar tayvorlash va qavta tayvorlash ishlari temuriyalar jamoasi raxfri 5-o rinni egaladi.

haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlasi  
ham muvaffaqiyat bilan bajarib kelinmoqda. Klubda  
bo'lajak haydovchilar avtomototransport vositalarining  
tuzilishi va ulardan foydalanish ko'nikmalarini puxta  
egallab olishi uchun zamonaviy transport vositalari hamda  
o'quv-mashg'ulot xonalarining mavjudligi mana shunday  
muvaqqafiyatlar omili bo'lmoqda.

Shuningdek, belgilangan rejaga muvofiq,  
hamkorlik memorandumiga asosan, hududdagi  
*Milliya qurʼadiya hukmiga qizmat bilan i istiqomat*

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari ixtiyoriy ravishda klubdag'i "BC" toifali haydovchilik kurslarida tahsil olmoqda. Buning uchun sinfxonalar talab darajasida jihozlanib, o'quv mashg'ulotlari malakali mutaxassislar tomonidan olib borilmogda.



Xususan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasidagi yutuqlar shular sirasidan. Bu boradagi tadbirlar, ayniqsa Yoshlar kuni munosabati bilan yanada samarali bo'ldi. Muhim sanaga bag'ishlab, hamkor tashkilotlar ko'magida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida bir qancha ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi. Jumladan, tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'lmlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarda ming nafardan ziyyod faol yosh ishtirot etdi.

- Bunday tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishdan maqsad yoshlarimizni ona yurtimizga munosib vatanparvar insonlar bo'lib kamol topishiga ko'maklashishdan iboratdir. - devdi O'STK boshlig'i Shokirjon



Qahramonlar nomi barhayot

# Anvarjon Otabekovning SO'NGGI SO'ZLARI



2005-yil 13-may kuni Andijon voqealarida terrorchi guruhlarning ma'muriy binoga hujumini qaytarish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan kichik serjant Anvarjon Otabekov Mashrabbekovich xotirasiga.

Kechar juft-u toq kunlari,  
Umrning eng oq kunlari,  
So'ng boshlandi "voh" kunlari,  
Bitdi vaqtim chog' kunlari...  
Vatan, sening xizmating-chun  
Par to'shakda yotganim yo'q.

Aralashdi chin-u yolg'on,  
Begunoh kim, kim sabil jon?  
Qon to'kildi, faqat qon, qon...  
O'tlar ichra qoldi Anjon!  
Qasam, Vatan haqqi qasam,  
Xalqimga o'q otganim yo'q.

O, ota yurt, qutlug' o'choq,  
Sen baxtimga ochding quchoq,  
Kim ko'ksingga urdi pichoq?  
Men bilmayman, tarix guvoh.  
O'z qonimga botdim, biroq  
Bu gunohga botganim yo'q.

Manak qishloq, Xo'jaobod,  
Bo'lsin deb har go'sha obod,  
Qurol tutgin, qil qasamyod!  
Yurtni qo'ri, g'animmni ot!  
Nomi unut bo'larmi hech  
Yurtga qoni singgan avlod...  
Menden avlod qolgani yo'q.



Elga fitna solgan terror,  
Ne begunoh jonlar abgor...  
Chimildiqni kafan qildim,  
Yor, mahsharga qoldi diydor.  
Shu tuproqqa singgunimcha  
Hatto qo'ling tutganim yo'q.

Hali qancha hasratlar bor,  
Sabr degan maktablar bor,  
Ortimda ko'z tikib qolgan  
Muborak-u Mashrablar bor  
Ularning ko'zyoshlaridan  
Ho'l tuproqlar qotgani yo'q.

O'qsiz qolgan miltiq - loshim,  
Uni qo'yma, quroldoshim,  
Bir taskin bor, bir umid bor,  
Hisob kuni baland boshim:  
Ayon bo'lar do'st kim, yov kim?  
Men hech kimni sotganim yo'q.

Erkning bo'yi, anbari bor,  
Goh jon tikar damlari bor,  
Chaqirsangiz yer ostida  
Necha shahid Anvari bor...  
Bu charog'on oqshomlarning  
Yorug' kunga aylanguncha  
Tunni tongga ulab chiqqan  
Yurtning minglab askari bor.  
Ey, Vatanning askarlari,  
Ey, onamning Anvarlari,  
Safingizdan ketganim yo'q,  
Safingizdan ketganim yo'q.

**Suhrob ZIYO,**  
**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**



## VATANPARVAR



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi

Tahririyat kengashi:  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan  
farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan  
tahririyatining kompyuter markazida  
sahifalandi.

Bosh muharrir:  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida 2008-yil  
6-iyunda 0535 raqami bilan  
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:  
kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov  
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev  
Musahih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5993  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 32 272 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani  
rasmiylashirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop  
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa  
boshsigan.

Nashri ko'satkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6  
Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,  
Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)  
vatanparvar-bt@mail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



[www.youtube.com/c/UzArmiya](http://www.youtube.com/c/UzArmiya)